

O‘ ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “SERFAYZ O‘ZBEK DASTURXONI” MAVZUSIDA
NATYURMORT KOMPOZITSIYA BAJARISH..

Ilmiy rahbar:
Bajardi:

o`qituvchi: **S.T.Sa`diyev**
“Tasviriy san`at va muhandislik
grafikasi” ta’lim yunalishi
4-“T¹” kurs bitiruvchi talabasi
Xasanov Yoqibjon Kamolovich

Navoiy-2013

MUNDARIJA

KIRISH:

I-BOB Tasviriy san`atning, hozirgi kunda tutgan o`rni va ahamiyati...

1.1. Tasviriy san`t turlari va janlari haqida umumiy ma`lumot.....

1.2. Kompazitsiyani bajarishdagi bosqichlar haqida umumiy ma`lumot.....

II-BOB. Serfayz o`zbek dasturxoni mavzusida natyurmort kompazitsiyasini o`rgatishning tahliliy qismi.....

2.1. Kompazitsiyani bajarishdagi o`ziga xos texnika va usullari.....

2.2. Kurrai zaminimizda, o`zining mehmon do`stligi-yu, dasturxoni bilan tanilgan millatimiz
iftixorimiz.....

2.3. Natyurmort janrida ijod qilgan, mashhur xalq rassomlari va ularning
Ishlaridan namunalar.....

Umumiy xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga, kasb-hunar ko'nikma- lariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona echimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq mantiqiy mushohada qilish tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tasviriy san'atni modernizatsiyalash o'zining ko'p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta'lim tizimi oldiga bir qator aksiomatik vazifalarni ko'ndalang qilib quyadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poyde- vorini, faravon hayot asosini qurish deganidir" Shu jihatdan olganda, mamlaka- timizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlash- tirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni" hayotga tadbiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali, o'quvchilarning iste'dod- lari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida, mamlakatimizda barqoror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida, amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugun- gi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi

daromadlarining o`shirishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo`jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqoror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo`lga kiritildi.

O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Kari- mov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo`llarining aniq va to`g`ri ko`rsatib berilganligi, bosh maqsad yo`lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo`lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o`zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o`z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko`rsatadi. Biroq, o`z o`rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashtirishning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ma'lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o`rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik taxdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o`zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo`jaligining yaxlit tizim sifatida barqoror rivojlanishiga to`sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati - jahonning bir mamlakatida ro`y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o`z ta'sirini o`tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashtirish jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo`ladi.

Shunga ko`ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-Iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.A.Kari- movning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» nomli asarlarida batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozning mazmun-mohiyati, namoyon bo`lish tahlilari, kelib chiqish sabablari, uning O`zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo`lish ommillar tahlil qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz aholisi uchun g`oyat murakkab va og`ir bo`lishiga qaramay, 2008- yilda foydali bitimlar va

yutuqlar baholanib, respublika- mizdagi iqtisodiy sohadagi yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko`proq amalga oshirish , O`zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon hamjamiya- tida yuksak marralarga chiqishning ishonchli yo`li sifatida, 2009- yilga mo`ljallaigan iqtisodiy dasturning, quyidagi eng muhim ustuvor yo`nalishlari bilgilab berilgan:

* Mamlakatimizda qabul qilingan, 2009-2012 yillarda Jahon iqtisodiy inqiroz oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo`yicha, qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o`shishning barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning munosabatlarni rivojlanishini ta'minlash;

Tarkibiy o`zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni dinersifikatsiya- lash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo`lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo`naltirilgan. Maqsad muhim tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo`li bilan amalga oshirish;

Qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirish hamda mulkdorlik tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o`rni va ahamiyatini tubdan qayta ko`rib chiqishga, fermer xujaligini rivojlantirishni har tomonlama qo`llab-quvvatlashga yo`naltirilgan uzoq muddatli, o`zaro chuqur bog`langan chora-tadbirlarini keng ko`lamda amalga oshirish;

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishni muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy samaradorligini yanadl rivojlantirish;

- Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo`jalik yurituvchi sub'ekt- larning bo`sh mablag`larini, tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag`batlantirish.

Prezidentimizning ushbu asarlarida belgilab berilgan, O`zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o`rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o`shishni ta'minlash, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to`liq va samarali amalga oshirish, eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etishlarini taqozo etadi. Shungdek O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko`ra, Prezidentimiz I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari» nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o`rganish, unda ko`rsatib o`tilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2009- yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo`nalishlarini bilish maqsadida, mazkur maxsus kursning joriy etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatimizda yangi ish o`rinlariga zamin yaratilmoqda.

O'tgan yili AQSH ning ipoteka bozorida boshlangan, bugungi kunda ko'plab iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini to'g'ri baholash va shu asosda unga qarshi samarali chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish har doimgidek dilzarb masala hisoblanadi. Yutuboshimizning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli kitobida ham Inqirozga qarshi choralar dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari aniq ko'rsatib berilgan edi.

Bugun mamlakatimizning "oltin sandig" deya ta'rif berilayotgan viloyatimizda Prezidentimizning 2008 yil 2-dekabrda Farmoni bilan "Navoiy" erkin industrial – iqtisodiy zona tashkil etilishi, kelajakda yangi ishlab chiqarish korxonalari sonining ortishiga va minglab muqim ish o'rinlari yaratilishiga zamin hozirlayotir.

Jahon tarixidan ma'lumki, birinchi erkin savdo zonasi, qadimiy Gretsiya davlatida tashkil etilgan. Madaniy ko'rinishdagi erkin iqtisodiy zona esa 1888 yilda Germaniyaning Gamburg shahar portida tashkil etilgan. Hozirda 135 davlatda 3000 ga yaqin bunday hudud mavjud bo'lib, ularda 68 million kishi ish bilan band hamda har yili qarib 500 milliard AQSH \$ miqdorida tovar aylanmasi mavjud.

Viloyatimizning sanoatlashgan darajasi, kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi, qadimiy "BUYUK IPAK YO'LI" ning kesishgan nuqtasida ekanligi ya'ni xalqaro E-40 avtomagistralining mavjudligi hamda xalqaro havo karidorining joylashgani tufayli hudud shu erda barpo etildi va hozirgi kunda 564 kilometr devor bilan o'ralib kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlandi.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar esa 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingandi.

"NAVOIY" erkin industrial-iqtisodiy zonasida yaqin yillarda 100 ga yaqin xorij ishlab chiqarish korxona va fabrikalari qurilishi loyihalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunda bir qator istiqbolli loyihalar bo'icha qurilish ishlari boshlanayotir.

2009 yilda "NAVOIY" erkin industrial-iqtisodiy zonasiga 900 million AQSH \$ miqdorida 40 ga yaqin loyiha asosida xorijiy investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan.

Ayniqsa, 2009 yilning 5-mart kuni Janubiy Koreyaning Seul shahrida yirik ishlab chiqarish korxonalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ishtirokida o'tkazilgan Prezintatsiyada 600 million AQSH \$ hajmidagi 30 ga yaqin istiqbolli loyiha shart-nomalari imzolangan edi.¹

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma'naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e'tibor berib: "Biron-bir jamiyat

ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi" deb alohida ta'kidlaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi:

Men o'z malakaviy bitiruv ishimda "Serfayz o'zbek dasturxon" shu mavzuli natyurmortim haqida umumiy tushuncha berishni, natyurmort ishlashning usullarini bayon etishni va natyurmort chizishning o'ziga xos texnika va usullariga doir bir nechta misollar keltirishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yaman.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

–bu kompazitsiyani mavzusini o'rgatishda, maktab o'quvchilari uchun uning juda oddiy usullardan foydalanib bilim va ko'nikma berish.

–kompazitsiya mavzusini o'tishda innovatsion texnologiya usullaridan o'rindi foydalana olish orqali bilim berish

Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 75 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab o'quvchilarining tasviriy san'at darslarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida "tasviriy san'at" fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida tasviriy san'at darslarida natyurmort mavzusini o'rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Tadqiqot ishimizni yozishda quyidagi:

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san'atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

Do'stlik bayrog'i gazetasi. 2010 yil 7-yanvar soni.

I-BOB Tasviriy san`atning, hozirgi kunda tutgan o`rni va ahamiyati

1.1. Tasviriy san`t turlari va janrlari haqida umumiy ma`lumot.

Tasviriy san`atning uch turi mavjud

1. Rangtasvir. 2. Haykaltaroshlik. 3. Grafika.

Rangtasvir - deb tekis yo`zada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan bo`yoqlar moyli bo`yoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, ko`mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog`oz, mato, karton, devor, oyna, yog`och kabi tekis yo`zalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil qiladi. Har qanday rangtasvir inshida, avvalo, uning rasmi ishlab olipadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o`rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatdan turli-tuman bo`lib, ular moybo`yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guagshli, pastelli bo`lishi mumkin.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud: 1. Dastgohli rangtasvir. 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir. 3. Miniatyura (mo`jaz) rangtasviri, 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir. 5. Teatr-dekorativ (bezak)rangtasviri.

Dastgshli rangtasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgoh. (molbert) yordamida ishlaydigan suvratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo`lmagan o`lchovda yuqorida qayd qilib o`tilganidek mato, karton, oyna, faner kabi tekis yo`zali materiallarga bo`yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli Rangtasvirda ko`pincha moyli va akvarel bo`yoqlar qo`llaniladi.

Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli), ya`ni katta o`lchovdagi rangtasvir ma`nosini anglatadi va bu turdagi asarlar ko`pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo`yoqlari bilan ishlanadi. Monumental rangtasvir asarlarining *freska, mozaika, vitraj panno* kabi turlari mavjud.

Freskalar asosan bino devorlarining o`ziga, shuningdek, unga matolar yordamida ishlanadi.

Mozaika — turli tabiiy va ikkilamchi materiallar — rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi .

Vitraj panno – esa binolarning deraza, eshik, oynalari ustiga bo`yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko`rinadi.

Miniatyura - (mo'jaz) rangtasviri deyilganda bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o`rta asrlarda kitob bezagi bilan bog`liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhal harf, illyustratsiyalardan iborat bo`lgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movarounnahrda katta shuhrat qozongan. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomosha qovoq kabilarni bezatishda hamkeng qo`llanilmoqda. Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yilga ommalashib bormoqda.

Dekorativ Rangtasvir - asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo`lib, u binolarning ichki va tashqi devorlarini bezatishga keng qo`llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, quticha, patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo`l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ raigtasvirga kiradi.

Teatr dekorativ - Rangtasviri spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, sahna jihozlari bilan bog`liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq. singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e'tibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unda ifodalangan voqea sodir bo`layotgan joy, davr, muhit to`g`risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishi osonlashtiradi va faollashtiradi.

Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyotida akademik rangtasvir iborasi ham ishlatiladi. **Akademik Rangtasvir** asosan o`quv jarayonida foydalaniladigan ko`rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi.

Haykaltaroshlik - ham xuddi rangtasvir kabi hayotiy voqea va hodisalarni turli uslub va tasvirlash texnikasi hamda materiallar yordamida ifodalaydi. Haykal- taroshlikda tosh, metall, gips, yog`och, vosk (mum), sim kabi materiallar keng qo`llaniladi. Haykaltaroshlik asarlari kesish, yopishtirish, ulash va o`yish, quyish orqali bajariladi.

Haykallarning asosan ikki turi mavjud bo`lib, ularning birinchisi toliq, yumaloq, haykallar, ikkinchisi esa relefli — bo`rtma haykallardir. Yumaloq haykallarni har tomondan ko`rish mumkin bo`lsa, relefli haykallarni faqat bir tomondan, ya'ni oldindan ko`rish kerak bo`ladi. Relfli Haykallar tekislik ustiga ishlanib, yo`zadan qisman bo`rtib chiqqan bo`ladi.

Relfli haykallarning ham ikki xili bo`ladi:

1. **Barelef**da tasvir qalinligining yarmidan kami bo`rtib chiqqan bo`ladi.

2. **Gorelefd**a esa bu qalinlikning yarmidan ko`progi bo`rtib turadi.

Haykaltaroshlikda ma'lum miqdorda rangdan ham foydalaniladi. So`nggi yillarda asalari mumi (vosk)dan haykallar ishlash texnikasi qo`llanila boshlandi. Bunda rangli mumlardan keng foydalanilmoqda. Haykallar shakl va mazmun jihatdan realistik, dekiragip na abstrakt yo`nalishlarda bo`ladi.

Realistik Haykallarda odam, hayvon va boshqa tasvir ob`ektlari haqiqiy ko`rinishda ifodalansa, dekorativ haykalarda ular stillashgan, ya'ni shakl, o`lchov, proportsiya va boshqa jihatlardan ma`lum darajada o`zgartirilib ifodalanadi. Abstrakt Haykallardagi ob`ektlarlar shakl, mazmun, o`lchov va boshqa jihatlardan mavhumlashtirilgan holda tasvirlanadi.

Haykaltaroshlar o`z faoliyatlarida ish quroli sifatida quyidagi asboblardan foydalanadilar: maxsus dastgoh bolg`a, bolta, stek, sirkul, iskana va boshqalar. Iskanalarning tug`ri burchakli, uchburchakli, trapetsiya burchakli, chuqur shakl beruvchi yoysimon turlari bo`ladi. Shuningdek, Haykal loyi ustidagi ortiqcha qismini tortib olish uchun qattiq metallardan tayyorlangan doyra, ellips, uchburchak, to`rtburchak, trapetsiya shaklidagi sidirgichlar qo`llaniladi. Shuni ham qayd qilish lozimki, Haykaltaroshlikda qo`llaniladigan iskanalar turli o`lchovda, to`zilishga va shaklda bo`ladi. Haykaltaroshlikning dastgohli, monumental, yodgorlik (memo- rial), dekorativ va monumental-dekorativ turlari mavjud.

Dastgohli haykaltaroshlik - iborasi haykallarni maxsus asbob (dastgoh)ga o`rnatib ishlanganligidan kelib chiqqan. Bunday haykallar mustaqil amaliy ahami- yat kasb etib, ular jamoat binolari va uy-joylarning ichki qismi, shuningdek, istiro- hat bog`lari, mo`zey va ko`rgazma zallariga mo`ljallab yaratiladi. Dastgohdi hay- kallarning o`ziga xos xususiyatlaridam yana biri, ularda tasvirlanayotgan ob'ekt- larning haqqoniy, ya'ni hayotdagi o`lchamda yoki undan kichik bo`lishligidadir.

Dasttohti haykaltaroshlik asarlari yaqindan ko`rishga mo`ljallangan bo`lib, unda portret asosiy o`rinni egallaydi. Haykaltaroshlikda timsolning faqat bosh qismi va elkasi tasvirlanganda, bunday asar **byust** deyiladi. Agarda odam bo`yi-basti bilan tasvirlansa, bu **figurali portret** deb yuritiladi. Shuningdek, yarim figurali portretlar ham bo`ladi.

Mahobatli haykaltaroshlik iborasi monumental, ya'ni yirik, mahobatli haykal ma'nosini anglatadi. Ular maydon va ko`chalarga keng xalq. ommasi uchun mo`ljallab o`rnatiladi. Bunday haykallar tarixiy voqealar yoki alohida mashhur shaxslarning nomlariri abadiylashtirish maqsadida o`rnatiladi. Monumental haykallar o`zoqdan ko`rishga mo`ljallangan bo`lib umumlashtirilgan tarzda atrof-muhit bilan bog`liq holda yaratiladi. Monumental haykaltaroshlikning alohida yo`nalishlaridan biri — bu monumental-dekorativ haykaltaroshlikdir. Bu yo`nalishdagi asarlar ham monumental haykaltaroshlik asarlari kabi keng xalq ommasi uchun mo`ljallangan bo`lsada, ko`proq bezak vazifasini bajaradi.

Mahobatli — dekorativ haykallar – ko'cha va maydonlarni, bino va istirohat bog'larini, fontanlarni bezatishda ishlatiladi. Ularda odam, hayvon, baliq, va qushlar tasviri ifodalanadi. Bunday haykallar yirik o'lchamda bo'lganligi sababli, ularni bemalol o'zoqdan ko'rish mumkin. Mahobatli asarlarning umumiy o'lchami, hajmi, proporsiyalari tevarak-atrof, tabiat va binolarga moslab ishlanadi.

Mahobatli-dekorativ haykallar garchi mahobatli bo'lsa-da, ular ham to'liq hajmli va relefli qilib ishlanishi mumkin.

Plastik haykaltaroshlik — haykaltaroshlikning bir turi sifatida monumen-tal haykallarda, yodgorlik haykallarda, shuningdek, binolarning ichki va tashqi bezak ishlarida keng qo'llaniladi. Ular o'lcham jihatdan kichik bo'lib, mustaqil amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Maxsus loydan ishlanadigan kichik o'lchamdagi o'yinchoq haykalchalar ham plastik dekorativ haykallar hisoblanadi. Ularni ba'zan mayda plastika deb ham atashadi. O'zbekistonda haykaltaroshlikning bu turida usta kulollardan X.Raximova, U.Juraqulov, A.Muxtorov kabi xalq, kulol ustalari samarali mehnat qilganlar.

Dekorativ haykaltaroshlikning yana bir turi borki, ular kichik o'lchamdagi metall, marmar, yog'och, suyak, chinni kabi materiallardan ishlanadi. Ular ham dekorativ, ham realistik tarzda ishlanishi mumkin. Bunday haykallar kitob javonlari, yozuv stollarini bezatadi.

Grafika. "Grafika" — lotincha so'z bo'lib, "yozaman, chizaman" degan ma'noni bildiradi va tasviriy san'atning turlaridan biri hisoblanadi. Grafikaning turlaridan biri gravyuradir. "Gravyura" frantsuzcha so'z bo'lib, "kesish" ma'nosini bildiradi. Bunda rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Bu rasmlar avvalo metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarda ishlanib, keyin undan qog'ozga ko'p tirajda ko'chiriladi. Metallda tayyorlanadigan gravyurani ofort, yog'ochdagisini ksilografiya, lenoliumdagisini linogravyura, tosh orqali tayyorlanadiganini esa litografiya deb yuritiladi. Grafika asarlarining qo'llanish sohalari nihoyatda kengdir. Xususan, estamp, kitob illyustratsiyalari, plakat, pochta markalari, gazeta-jurnal bezaklari, karikaturalar, (hajviy rasmlar) estetika va o'rama (upakovka)lar, teatr va kino afishalari, yo'l va tovar belgilari, tashkilot va muassasalarning ish blankalari shular jumlasidandir.

Kitob grafikasining ilk vatani Sharq hisoblanadi. XV - XVII asrlarda bu sohada Sharq musavvirlaridan Kamoliddin Behzod, Mahmud Mo'zahhib, Muhammad Murod Samarqandiy, Sultom Muhammad, Qosim Ali, Abdullo kabilar shuhrat qozongan bo'lsalar, XX asrda O'zbekistonda I.Ikromov, V.Kedrin, O.Osheyko, Q.Basharov, T.Muhammedov, I.Kriakidilar sermahsul ijod qildilar.

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu - uning katta o'lchamda bo'lmasligi va bo'yoqlar sonining chegaralanganligi hisoblanadi. Shuni uchun ham grafika asarlarida faqat chiziqli, yoki to'q rangli tasvir ishtirok etadi. Ba'zan grafik tasvirlar ham rangli bo'ladi.

Ayrim grafika asardari katta o'lchamda va ko'p nusxada tayyorlanadi hamda katta tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Bu plakatlardir.

Grafika san'atida estampan hamkatta o'rinni egallaydi. "Estampa" fraitsso'zcha so'z bo'lib, "shtamplash" ma'nosini bildiradi. Estampa yaratish uchun avvalo tasvir maxsus asboblardan bilan qattiq, materialga (tosh, yog'och, linoleum) o'yish orqali tushiriladi. So'ngra o'yilgan material ustiga bo'yoq, beriladi va undan qog'ozga tasvir olinadi.

Estampa uchun shu narsa xarakterliki, unda gravyura bosmadan chiqqanidan so'ng rassom unga ba'zi bir to'zlashlar kiritadi va asar tagiga o'z imzosini qo'yadi.

Grafika texnikasining keng tarqalgan turlaridan yana biri bu - illyustratsiyalardir. Qadim-qadimdan tasviriy san'at kitob bezagi bilan chambarchas bog'langan holda rivoj toptan. O'rta asrlarda Sharq va G'arb mamlakatlarida yaratilgan kitoblarning deyarli ko'pchiligi naqshlar va rangli rasmlar bilan bezatilgan. Bu rasmlarda kitob mazmuni o'z aksini topar edi. Keyinchalik, kitob bosish dastgohlari ixtiro qilinganidan so'ng, illyustratsiyalar kitoblarda yanada katta o'rin egallay boshladi. Ilyustratsiyaning ahamiyati shundaki, birinchidan u kitobni bezakli, chiroyli va yoqimli bo'lishiga yordam beradi, ikkinchidan adabiy obrazlar-timsollarni aniq va jonli bo'lishiga, o'quvchining yodida yaxshi saqlanib qolishiga xizmat qiladi. Rassom biror bir adabiy asarga illyustratsiya ishlashga kirishishdan avval, mazkur asarni yaxshilab o'rganib chiqishi bilan bir qatorda, asardagi voqea sodir bo'layotgan davrga doir materiallarni ham toplashi, o'sha davr odamlarining madaniyati va turmushini, mamlakat tabiatini bilib olishi kerak bo'ladi.

Karikatura - bu ham grafikaning bir turi hisoblanadi. Unda hayotdagi ayrim salbiy hodisa va ko'rinishlar, shaxslar xajviy yoki hazil tarzda rasmlar orqali tanqidiy tasvirlanadi.

Grafikaning reklama, afisha, etiketka, o'rama (upakovka) kabi turlari ham keng tarqalgandir. Gazeta, jurnal grafikasi ham shriftlar bilan bog'liq bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.

O'tgan asrning 60 yillarida o'zbek grafik rassomlari milliy tasviriy san'atning badiiy an'analarini davom ettirib, yuksak badiiy saviyadagi asarlarni yaratgandilar. Shunday rassomlardan biri I.Ikromovdir. Iskandar Ikromov tomonidan A.Navoiyning "Lirika" nomli to'rt jildlik she'rlar to'plamiga ishlangan rasmlar rassom ijodining gultoji hisoblanadi. Bu ish 1960 yilda Toshkentda Markaziy Osiyo rassomlarining hududiy konferentsiyasi munosabati bilan ochilgan ko'rgazmada e'tirof etilib, yuksak taqdirlangan. Kitobning muqova jildi nihoyatda original va betakror bo'lib chiqqan. Undagi to'vus tasviri asarga mos lirik xususiyat kasb etadi.

Muqova yo`zasidagi grafik belgilarining bir tekisligi, tovu tasvirining nafis ranglar bilan berilgan gul shakli, qushning orqa tomomidagi havo rang bo`yoqlar bilan berilgan gul shakli, shuningdek, qizil rangda yozilgan kitob nomi ishning yuqori badiiy saviyasini ta`minlagan.

O`zbek kitob grafikasi sohasida samarali mehnat qilgan rassomlardan yana biri Telman Muhamedovdir. Bu o`ziga xos rassom asosan o`zbek xalq ertaklariga nihoyatda jozibali illyustratsiyalar ishlab, katta shuhrat qozondi. Uning eng muvaffaqiyatli ishlaridan biri "Nasriddin Afandi haqidagi latifalar" momli kitobga ishlagan "Eshakni o`qishga o`rgatish" nomli illyustratsiyasidir.

1.2. Tasviriy san'atning janrlari haqida ma`lumot.

Tasviriy san'atda natyurmort, manzara, maishiy, portret, tarixiy, animal, (ya`ni hayvonot olamiga oid) afsonaviy, dengiznavislik, nyu, interyer janrlari mavjud.

Janr – rassom nimani tasvirlayotganligiga qarab belgilanadi. Masalan, asar- larda jonsiz narsalar tasvirlansa (natura) “Natyurmort”, odam rasmi ishlansa, ular “Portret”, tabiat va shahar ko`rinishlari tasvirlansa “Maishiy” janriga xos bo`ladi. Yoki tarixiy voqealarni tasvirlash “Tarixiy ” janr, hayvonlarni tasvirlash “Animal” janr deb yuritiladi. “Animal” janri lotincha “anima” so`zidan kelib chiqqan bo`lib, hayvon ma`nosini anglatadi. “Batal” janri esa franso`zcha, “ batay ” so`zidan kelib chiqqan bo`lib, jang, “nyu” janri franso`zcha yalang`och ma`nosidagi so`zidan kelib chiqqandir. Ayrim asarlar, bir paytning o`zida, ikki va undan ortiq, janrlariga man- sub bo`lishi mumkin. Masalan, portret va nyu, dengiznavislik, inter`er, manzara va hokazolar.

Har bir janr, o`z o`rnida yana bir qancha janrlarga bo`linishi mumkin. Masa- lan, manzara janrini tabiat manzarasi janri, shahar manzarasi janri, industrial-sano- at binolari ko`rinishi manzarasi janriga yoki portret janrini tantanavorlik, ishqiy, guruhli janrlarga bo`lish mumkin.

Vaqt o`tishi bilan janrlar tabaqalashib, mustaqil tus olishi ham mumkin. Ma- salan manzara janridan dengiznavislik, tarixiy janridan batal, manzara janridan in- ter`er ajralib chiqqan.

Manzara janri. Tasviriy san`atda tabiat, shahar industeral-sanoat, inter`yer ko`rinishlarning tasvirlanishi manzara janriga ta`luqlidir. Manzara janridagi asar- larning ayrimlari bevoseta tabiatning haqiqiy, ya`ni hayotiy ko`rinishini tasvir- lasa, boshqalarda borliq ijodiy tarzda, hayolan ifodalangan bo`ladi. Ba`zan bu ikki hol bir asarda ko`zatilishi ham mumkin. Manzara janrining paydo bo`lishi juda o`zoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarning keng tarqalishning qadimgi Sharq va Krit orollardagi, qadimgi arxeologik qazilmalari misolida ko`rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi davrlarga oid Beni-Hasandagi qabr toshda yovvoyi mushuk ovi tasvirlangan. Manzara janri mustaqil ravishda Xitoyda VI asrda paydo bo`lgan bo`lsa

Yevropa san`atida Uyg`onish davrida ilmiy negizda, ya`ni chiziqli va havo (rang) perspektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrining ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretning orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan va san`at ixlosmandlariga manzur bo`lgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O`Tansiqboyev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni alohida tilga olish mumkin.

Manzara janrining alohida shakllaridan biri bu inter`er hisoblanadi. **Inter`er** binolarning ichki qismi ko`rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi misrliklar va xitoliklar o`z ishlarida inter`erni aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perspektiva qonunlari asosida tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A. Verrokko, Leonardo da Vinchi, Rembrantlar shuhrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko`rinishi bu dengiznavislik janridir. Unda asosan dengiz ko`rinishlari va undagi hodisalar tasvirlanadi. Dengiz janrining shakllanishida, I. Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo`lgan. Bu ulug` rassom o`zi- ning umrini faqat dengiz ko`rinishlarini tasvirlashga bag`ishladi. Uning “To`qqizinchilarning”, “Chesmen jangi”, “Qora dengiz”, “To`lqinlar orasida” kabi asarlari jahon tasviriy san`atida munosib o`rinni egallaydi.

Dengiznavislik janridagi asarlarda boshqa janrlarga xos elementlar ham ifodalanishi mumkin. Masalan, portret, manzara, tarixiy, maishiy va hokazolar.

Manzara janri ko`proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo`llaniladi. Haykaltaroshlikda manzara ko`rinishlari asosiy emas, balki to`ldiruvchi, qo`shimcha ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy san`atda, ayniqsa, rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g`oyasining to`la ochilishiga uning tomoshabinga emosional-hissiy ta`sirini kuchaytirishga, shuningdek, kompozitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Natyurmort janri. “Natyurmort” so`zi fransuzcha bo`lib “jonsiz narsalar (natura)” ma`nosini anglatadi. Bu janrdan asosan rangtasvir va grafika asarlarida keng qo`llaniladi. Tasviriy san`atning bu janrida gullar, mevalar va sabzavotlar qushlar, baliqlar oziq-ovqatlar, turli predmetlar aks ettiriladi. Natyurmort mustaqil janri sifatida XV –XVI asrlarda Gollandiya va Ispaniyada paydo bo`lgan. Natyurmortning ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil ravishdagi natyurmort bo`lsa, ikkinchisi yordamchi yoki to`ldiruvchi natyurmortdir. Natyurmortning birinchi turida faqat natyurmort tasvirlansa, ikkinchi turida natyurmort bironta portret yoki maishiy janrdagi tasvirda qo`shimcha detal sifatida ishlangan bo`ladi. Natyurmortning xarakterli

xususiyati – uning hayotdan, go`zallikdan zavqlanishga yo`nal- tirilganligidadir. Bu fazifani rassom gullar, meva–sabzavotlar, oziq-ovqatlarni turli ko`rinish va ranglarda ifodalab, kishilarning his-hayajonini uyg`otish orqali bajariladi.

Natyurmortning turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida ma`lumotlar berishi ham o`ta muhimdir. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil ta`si- rini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni go`zallika oshno etib ,ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq-ovqatlar tas- viridan tashkil topgan bo`lsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaha baxsh etadi.

Ikkinchisida natyurmort o`zi haqida emas, balki u bilan bog`liq shaxs uning egasi haqida ma`lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, biroq uning didi, ishtimoiy mavqey ifodalanadi.

Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi ham mumkin. Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J.Sharden, F.Snayders,I.Mashkov, P.Koncha-lovskiy, L.Salimjonovlar katta shuhrat qozonganlar.

Agar insonda xoxish – istak qattiq bo`lsa, atrofdagi barcha narsalarni aniq ko`chirib chizishni o`rganish mumkin. Ammo borliqni faqatgina ko`chirib chizish, bu rassom bo`ldim degani emas.

Maishiy janr. Bu janrdagi asarlar kishilarning maishiy turmush tarzi, mehnati, kundalik hayoti bilan bog`liq bo`lib, ularda ko`proq. oila, maktab, dam olish, shaxsiy va ijtimoiy hayot jarayonlari aks ettiriladi. Maishiy janrdagi asarlar nafaqat hozirgi kun odamlarining balki o`tmishdagi kishilarning turmush tarzi va hayoti haqida ham keng ma`lumot beradi.

Tasviriy san`atda maishiy janr XVII asrda Gollandiyada paydo bo`lgan. Bu janr o`z mazmuni jihatdan ancha murakkab bo`lib, natyurmort, manzara, animal va boshqa janrlar bilan bog`liq tarzda yaratiladi. Maishiy janr ko`proq rangtasvirda, ba`zan esa grafika va haykaltaroshlikda ham ishlatiladi. Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar tarixida nihoyatda ko`p bo`lib, ulardan eng mashhurlari sifatida turli zamon va makonlarda yashab ijod etgan Kamoliddin Bexzod, Leonardo da Vinchi, Ilya Repin, Z.Inog`omov, J.Umarbekov, A.Sikeyros, R.Kent va boshqalarni tilga olib o`tish mumkin.

Portret janri. "Portret" frantso`zcha "portrait" so`zidan olingan bo`lib, ki- shilarning chehrasini xuddi o`ziga o`xshatib tasvirlash ma`nosini bildiradi. Portret- da kishilar yakka, ikki kishi yoki bir guruh sifatida tasvirlanishi mumkin. Portretda odamlarning faqat boshi, ba`zan ular beligacha yoki buyi-basti bilan tasvirlanishi mumkin. Portret tasviriy san`atning uchala turida ham qo`llaniladi. Portret o`z xarakteri jihatidan monumental, miniatyurali, dastgohdi, ishqiy, hajviy bo`ladi.

Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili ham keng tarqalgan. Avto- portretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi. Portret rassomlar tomonidan naturani kuzatish, xotiradan yoki shaxsning fotosidan, shuningdek, arxiv materiali yoki adabiy tasviridan, ba'zan xatto vafot etgan marhumning bosh chanog'ini o'rganish asosida ham yaratiladi.

Portretchi asarning o'z qahramoni tashqi qiyofasiga o'xshash bo'lishiga erishishdan tashqari uning millati, kasbi, tabaqasini ham ifodalashga harakat qiladi. Shuningdek, portretida shaxsning ichki kechinmalari, kayfiyati, ma'naviy dunyosi ham tasvirlanishi kerak. Dastlabki portretlar qadimga Yunonistonda miloddan avvalgi VII-V asrlarda yaratilgan. Portret janri O'rta asrlarda Sharq, miniatyura- chilari va Evropa rangtas- virchilari va haykaltaroshlari ijodida ham keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, XVIII—XIX asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I.Repin, XX asr O'zbek rassomlaridan A.Abdullayev, Ch.Axmarov, V.Kaydalov kabilar samarali ijod qildilar.

Tarixiy janr. Rangtasvirning bu janrida insoniyat tarixidagi muhim voqealar va qahramonlar hayoti tasvirlanadi. Rassom bironta tarixiy voqealar ko'rinishini tasvirlash uchun avvalo o'sha voqeaning boshqa tarixiy voqealar orasidagi o'zni va muhimligini anglab yetishi kerak bo'ladi. So'ngra u o'sha voqea sodir bo'lgan davr haqidagi adabiy manbalarni, tarixiy me'morchilik obidalari hamda u yerdan topilgan arxeologik topilmalarni o'rganadi, ular asosida qoralama va ranglamalar yaratadi. Mavzuga aloqador tarixchilar bilan suhbatlashish voqea mazmuni hamda yaratiladigan asar detallarini aniqlashtirishga yordam beradi.

Batal janri. Bu janrdagi asarlarda rassomlar urush jarayonlarini zavq.-shavq, ko'tarinkilik, qahramonlik kabi tuyg'ular bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Bunday asarlarda ko'proq, vatanparvarlik g'oyalari ilgari surnladi. Ularda nafaqat jang ko'rinishlari, balki harbiylarning jangdan tashqari vaqtdagi turmushi ham ifodalanishi mumkin.

Jang manzaralarini tasvirlash qadimdan ma'lum bo'lsa-da, uning san'atda ifodalanishi Sharqda XV-XVI asrlarda keng tarqalgan. Ayniqsa, u Sharq miniatyura rangtasvirida alog'ida o'rin egallaydi. Mazkur janr XV—XIII asrlarda Yevropa Rangtasvirida rivoj topdi.

Tarixiy va bataljanrlarda samarali ijod qilgan rassomlar qatoriga Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, D.Velaskes, K.Bryullov, P.Pikasso, P.Rubens, F.Go- yya, V.Surikov, L.Deyneka, M.Nabiyev, R.Choriev kabilarni kiritish mumkin.

Animal janr. Animal lotincha "anima" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "jonlantirish" demakdir. U tasviriy san'atning deyarli barcha turlarida mavjud. Hayvon va qushlarning rasmini ishlovchi rassomlarni animalist rassomlar deb yuritishadi. Bunday rassomlarning tabiatga, uning ajralmas qismi bo'lgan hayvonot olamiga muhabbati kuchli bo'ladi.

Animal janr tasviriy san'atning mustaqil janri bo'lsa-da, hayvonlar tasviri ba'zan maishiy, portret, natyurmort janrlarida ham aks etishi mumkin.

Hayvonlarni tasvirlashga qadimgi Misrda katta e'tibor berilgan edi. Chunki, misrliklar ko'plab ilohlarini turli hayvonlar qiyofasida tasavvur etishgan. Ularni sfinkslarda odam, turli hayvonlar va qushlar ko'rinishida tasvirlaganlar. Bu ulkan haykallarning tanasi odam, boshi biror yirtqich hayvon yoki qush ko'rinishida bo'lgan. O'zbekistonda hayvonlar tasvirini ishlash eramizdan avvalgi VII-V asrlarda Afrasiyob freska va haykallarida (fil, ot, tuya, qushlar) yuksak badiiy saviyada ishlanganligining guvohi bo'lamiz.

Sharq, miniatyura rangtasviri asarlarida hamhayvonlar tasviri tez-tez uchrab turadi. Miniatyurachi rassomlar tomonidan ishlangan ov manzarasiga oid tasvirlarda kiyik, sher, qoplon, qushlar ko'p tasvirlanadi. Kamoliddin Behzodning "Tuyalar jangi" asari Rizo Abbosiyning "Cho'pon" miniatyurasi ham fikrimizning dalilidir.

XV—XVI asr Yevropada Uygonish davri rangtasvirida A.Pizanello, Leonar- do da Vinchi, A.Dyurerlar hayvonlar tasvirini aniq realistik tarzda ifodalashga harakat qilganlar.

XVII asrga kelib Gollandiyada hayvonlarni tasvirlash alohida janrga aylandi. Keyinchalik animal janrda rassom va haykaltaroshlardan P.Klodt, V.Serov, V.Vatagin, Yu.Vasnetsovlar ham ijod qilishib, betakror san'at asarlarini yaratdilar.

Afsonaviy janr. Afsonaviy janrdagi tasviriy san'at asarlarida hayotda uchramaydigan, biroq, xalq tomonidan xayolan o'ylab topilgan odam va hayvonlar, baliqlar, voqea hamda hodisalar tasvirlanadi. Xususan, afsonaviy janrdagi asarlarda osmonda uchib yo'rgan qanotli farishtalar, huru- g'ilmonlar, uch boshli ajdarlar, yarmi odam, yarmi ot "kentavrlar", yarmi ayol yarmi baliq, suv parilari, yarmi ayol, yarmi qush jonzotlar, bir ko'zli bahaybat devlar va xakazolar tasvirlanadi.

Afsonaviy janr tasviriy san'atning hamma turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qo'llanadi. Afsonaviy janrda ijod qilgan rassomlar qatoriga Rafael Santi, Sharq miniatyurachi rassomi, Sulton Muhammad, rus rassomlaridan M.Vrubel, V.Vasnetsovlarni kiritish mumkin.

Dengiznavislik janri (Marinizm). Marina frantsuzcha so'z bo'lib, dengiz ko'rinishi ma'nosini bildiradi. Marinizm — ya'ni dengiznavislik rangtasvirning turi sifatida Yevropa san'atida alohida o'rinni egallaydi. Dengiz, dengiz hayotidagi mug'im voqealar kemalar tafsilotini aynan tasvirlashga ushbu yo'nalish muhim o'rin tutadi.

Golland manzarachi rassomlaridan Ya.Porsellis, S.de Vliger, X.Sigers va boshqalar dengiznavislik janri imkoniyatlarini yanadi kengaytirib, dengiz tabiati va u bilan bog'liq baliqchilar hayotini aks ettirishda samarali ijod qildilar. Keyinchalik oyna janrda K.Verne, U.Terner, X.Mesdag, I.Ayvazoiskiy kabi rassomlar yuksak badiiy saviyadagi asarlar yaratdilar. Ushbu janrda O'zbekistonlik mo'yqalam ustalaridan F.Madgazin, O'.Tansiqboyev, A.Mo'minovlar barakali ijod qilishgan.

Dengiz ko`rinishlari portret, tarixiy, batal, maishiy jairlagi suvratlarning orqa planida ham tasvirlanishi mumkin.

Nyu janri. "Nyu" so`zi frantsuz tilidan olingai bo`lib, u yalag`och degan ma'noni anglatadi. "Nyu" portret janridai ajralib, chiqib mustaqil ahamiyat kasb etgan. Mazkur janrda rassomlar ko`pincha yalang`och ayollar rasmini ishlaydilar va bu orqali ular tanasidagi nafosatni ko`rsatmoqchi bo`ladilar. "Nyu" portret janri kabi yakka yoki ko`p figurali bo`lishi mumkin. U tasviriy san'atning barcha turlari (rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika)da keng qo`llaniladi.

Interer janri. Bu janrda binolarnipg ichki ko`rinishi, foe, yo`lak, xonalarning o`ziga xos jihatlari, ulardagi jihozlar, bezaklar va gullar tasvirlanadi.

1.2. Kompazitsiyani bajarishdagi bosqichlar haqida umumiy ma`lumot.

Natyurmortning turli millat va elatlarning turmush tarzi haqida ma`lumotlar berishi ham o`ta muhimdir. Mutaxassislar natyurmortning kishilarga ikki xil ta`si- rini qayd qilishadi. Birinchisida, natyurmort kishilarni go`zallika oshno etib ,ularni hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Agarda u meva-sabzavot va oziq-ovqatlar tas- viridan tashkil topgan bo`lsa, tomoshabinga yaxshi kayfiyat va ishtaha baxsh etadi.

Ikkinchisida natyurmort o`zi haqida emas, balki u bilan bog`liq shaxs uning egasi haqida ma`lumot beradi. Bunday natyurmortlarda kishilar aks etmasa-da, biroq uning didi, ishtimoiy mavqey ifodalanadi.

Natyurmortlarning bu ikki xili yaxlit holda ifodalanishi ham mumkin. Bu janrlarda ijod qilgan rassomlardan J.Sharden, F.Snayders,I.Mashkov, P.Koncha- lovskiy, L.Salimjonovlar katta shuhrat qozonganlar.

Agar insonda xoxish – istak qattiq bo`lsa, atrofdagi barcha narsalarni aniq ko`chirib chizishni o`rganish mumkin. Ammo borliqni faqatgina ko`chirib chizish, bu rassom bo`ldim degani emas.

Kompazitsiyani o`rganish yosh rassomdan ko`p harakat, tinimsiz izlanish talab qiladi. Donolar aytganidek, yurgan qir oshar singari.

Rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, haykaltaroshlar ijod jarayonida o`z fikr, hissiyotlarini turlicha: yozuvchilar-o`tkir so`z, bastakorlar- ohang uyg`unligi, rassomlar chizgi, shakl, rang orqali ifodalaydilar.

Rassom bo`lish qiyin. San`at insondan butun umrga o`zini baxshida etishni talab qiladi. Ichki ijodiy ruh rassomni bir daqiqaga ham tark etmaydi, doimo unga hamroh bo`ladi. U na dam olish kunlarni, na ta`til biladi. Rassom ko`chadami, tramvaydami,odamlar bilan gaplashayotgandami yoki tabiatni kuzatayotgan dami, qaerga bo`lishidan qat`iynazar ijod qilishdan to`xtamydi. Xuddi mehnatsevar **R.Hasanov. Tasviriy san`at asoslari G`.G`ulom nomidagi nashriyot. T-2009y(6-20 betlar)**

asalareidek doimo va hamma erda o'zining bo'lajak asarlari uchun material to'plab yuradi.

Ish jarayonida rassom zarur bo'lganda anchadan beri yig'ib kelingan kuzatuvlari va ta'surotlaridan o'ziga kerakligisini ajratib oladi. Ani paytda bu bo'lajak asar materiali hisoblanuvchi obrazlardir.

Kartinaning yaxshi yoki yomonligini har kim o'z fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda aniqlaydi. Lekin asar kompazitsiyasining qandayligini faqat yaxshi mutaxassis yoki san'at shunos ayta olishi mumkin. Ular asarning nimasi yaxshi-yu, nimasi yomonligi, kamchiliklari yoki xatolari yillar davomida ortirib kelgan ijodiy tajribasidan, badiiy ichki hissiyotidan, dididan kelib chiqqan holda aniqlaydilar. Ammo ular ham ayrim hollada asarni biror so'z bilan ta'riflashga ojizlik qiladilar. Rassom ustalar bilan suhbatlashgan chog'larimda, so'z bilan tushintirishga qiynalishganidan, beixtiyor majoziy so'zlarga o'tib ketishadi. Menimcha bu avvalo, san'atning hissiyot bilan bog'likligidadir. Juda ko'pgina rassomlar uchun kompazitsiyani bilish alohida o'rin tutadi. Ularning o'zlari ko'pincha "kompazitsion his etish" qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shu sababdan ham tasviriy san'atni sirtdan o'rganish juda qiyin, chunki ko'pgina masalalar faqat ko'rish orqali yechiladi.

Hech kim me'morai kompazitsiyada badiiy obrazni inkor eta olmaydi. Jumladan, natyurmort kompazitsiyasida ham. Rassom ishini boshida qulay bo'lishi uchun o'ta umumiy lashtirilgan shakllar bilan ishlasa-da, ularning haqiqiy hahotiy ifodasini va mazmunini nazardan chiqarmaydi.

Yuqorida eslab o'tilgandek, naryurmort kompazitsiyasi bu murakkab va ko'b ma'noli tushuncha. Qisqacha qilib aytganda, bu barcha tasviriy material, ya'ni kartina komponentlarining qahramonlar, manzara, buyumlar, makon, rang va yorug'likning matoda teng taqsimlanishidir. Bu degani faqat taqswimlab chiqish emas, balki ularni tartibga solish, har bir komponentni o'zaro bog'lash ular oasida turli xil-psixologik, plastic bog'liqlikni o'rnatishdir. Shu bilan birga kompazitsiya-bu asosiy maqsadi asarning asl mohiyatini ochib beruvchi, alahida bo'lgan komponentlarning joylashuvidir.

Kartina ta'sirchan, yodda qoladigan bo'lishi uchun unda asosiy g'oya aniq yoritib berilgan bo'lishi kerak.

Ma'lumki, naturalizim-bu hayotni yuzaki, tashqi tushinishdir. Keng qam-rovli ishlangan kartina ham naturalistik bo'lishi mumkin, qachonki unda kompa-zitsion timsoliy yechim topilmagan bo'lsa.

Tasodifiy olingan predmet va qahramolarni ko'cherish yoki mazmunsiz tasvirlash naturalizim deyiladi.

Tomashabin ucnun kartinaning barcha shakl va qismlari aniq, konkret bo`lib hisoblasa, rassom uchun ular ish avvalida-siluet, rangli dog`dir. Keyinchalik komponentlar birikib uyg`onlashib, ma`lum bir g`oya, mazmunini ifodalaydi.

Talabalarda hayotga, tabiatga mehr-muhabbat uyg`otish, asrga ijodiy yondoshishini o`rgatish uchun natyurmort va manzaran aniq g`oyaviy mazmunga ega bo`lishi kerak.

Eng to`g`ri tuzilgan komponovka ham, agar mazmunsiz, g`oyasiz, bo`lsa kartinani badiiy asarga aylantira olmaydi. Yosh rassom buni doimo yodda tutmog`i darkor. Kartina kompazitsiyasini ishlashdan avval g`oya o`ylangan bo`lishi lozim.

Aynan g`oya kompazitsion izlanishdagi yetakchi asos hisoblanadi. U asar- ning mavzusi, syujeti hamda kompazitsion va rangtasvir uslublarini aniqlab beradi.

Asarning g`oyasi tajribalardan, ichki kechinmalar, hissiyotlardan kelib chiqadi. Toki hayotdagi qiziq va ahamiyati hodisalarga, tabiat go`zalligiga e`tabor berilmas ekan, kompazitsiyani tushinish qiyindir.

Obraz ustida ishlash odamning fikrlash qobiliyati bilan bog`liq. Kartina mavzusi ham, badiiy tasavvur ham hayotni chuqur bilish natijasida paydo bo`ladi. Aynan u asar kompazitsiyasini qanday qurish, qaysi ranglardan foydalanish, figuralarni qanday joylashtirishda yordam beradi. Kartinani g`oyasiz yaratish-nima haqida so`zlashni bilmay turib, gapirishga urunish bilan tengdir.

Toki talabalar natyurmort kompazitsiya syujeti va mavzusini hayotiy tushunchasiz yaratar ekanlar, kartina ishonarsiz chiqadi. Obrazlar esa psixologik xarakter va shaxsiy fazilatlardan mahrum bo`ladi.

Ayni damda kompazitsiya ko`pincha eski kartinalar asosida qurilmoqda. Bugungi kunda kartinalarda to`ylarni, qishloq tandirlarini, milliy libosdagi qariya- larni tasvirlash takroriy holat bo`lib qolmoqda. Asarlardagi obrazlar esa, umuman xaraktersiz, ya`ni hayotiy emas, balki yosh rassom tomonidan o`ylab chiqilgandir. Bu esa ularning hayotiy tajribasi yo`qligi natijasidir.

Yana juda muhim bir narsaga e`tabor berish kerakki, u ham bo`lsa talaba- larning umumiy ta`limb o`yicha, ya`ni falsafa, adabiyot va boshqa fanlarni qay darajada o`zlashtirganliklaridir. Shu bilan birga talabalar o`z ustida ham ishlashlari lozim.

Ijodiy ishlash uchun ko`rish xotirasi, eda qolish hamda kuzatuvchanlik qobiliyati kuchli rivojlangan bo`lishi lozim. Kuzatuvchanlikka ega bo`lmagan talabalar ko`pincha qiziqarli hayotiy hodisalarga e`tabor berishmaydi .

Diplom ishi himoyalardagi kartinalarda ko`pincha primitivlik, harakat va imo- ishoralarning shartli qilib olinganligi ko`zga tashlanadi. Odam harakati “umumlashtirib” olingan. Aniq harakat, holatga doir imo-ishoralar ko`rsatilmagan. Bunga sabab, rassomning kuzatuvchan emasligidir. Ko`p figurali murakkab kompazitsiyaga o`tishdan avval studentlarga aynan mana

shu kuzatuvchanlikni kuchaytirish va o`stirish lozim. Ularga hamma vaqt va har erda o`z kuzatuvlarini hamda etyudlarni chizdirish kerak.

Ular qayerda bo`lmasinlar-transpordami, ko`chadami, doimo yonlarida qalam olib yurishlari lozim. Har qanday vaziyat va holatda odamlarning harakat- lari, ishoralarini ko`rsata bilishlari kerak.

Talabalar dam olayotgan va kutayotgan, tinglayotgan va kuzatayotgan, aylanib yurgan yoki shoshayotgan odam o`rtasidagi farqni ajrata bilishi hamda tasvirlay olishi lozim.

Birinchi va ikkinchi kurslarda talabalardan murakkab eskizlarni talab qilmaslik kerak. Murakkab kompazitsiyalarni bajarishda asta-sekin maxsus mashq- lar orqali o`tish lozim .

Bunday mashqlarni oddiy jismoniy harakatlardan boshlab, ularni tobora ishtirok etuvchilarning psixologik holati, kayfiyatini tasvirlash orqali murakab- lashtira borish kerak.

Tyrlil holatdagi ishoralar tasviri: bahslashuv, inkor etish, o`tinchi, so`rash. Turli xil psixologik holatlar tasviri: shodlik, qug`u, hayratlanish, qo`rquv, toliqish. Turli xarakterdagi odamlar tasviri: mehribon, jahldor, mard, qo`rqoq. Bir turdagi rasmlarni chizib bo`lgach, asta-sekin studentlar hayotidan hamda, tevarak-atrofdagi voqealardan lavhalarni tasvirlash mumkin.

Naturadan chijish va kopazitsiya mashqlaridan tashqari, yoddan chizishni ko`p mashq qilish kerak. Buning uchun tanish bo`lgan odamlar, o`qituvchilar, talabalar qiyofasini chizishni vazifa qilib bersa bo`ladi. Bunday mashqlar odamlar tashqi qiyofasining xarakterli qirralarini, imo-ishoralarini, yurish—turishini eslab qolishga va tasvirlanayotgan obrazga ijodiy yondoshishga o`rgatadi.

Kuzatuvchanlik va tasavvurni shakllantirishga qaratilgan mashqlar bir-birini to`ldirib borishi kerak. Kuzatishlar fantaziyaning joylashtirishga yordam beradi. Kuzatuvchanlik va tasavvurni shakllantiruvchi mashqlarning ahamiyatli tomoni yana shunda-ki, ular talabalarni o`z g`oyalarini amalga oshirish uchun materiallarni to`plash va izohlashga o`rgatadi. Bu esa kopazitsiyada ijodiy mashqlarga o`tish- ning eng asosiy shartidir.

Asar kompazitsiyasida taqqoslash kontrast muhim rol o`ynaydi. Agar kom- pazitsiya qiyosiy tarzda (masalan, katta va kichik, dinamik va harakatsiz, yorqin va bosiq ranglar, chiroyli va xunuk, mehribon va jahldor va hokazo.) qurilgan bo`lsa yanada jonli ko`rinadi. Bu haqda buyuk rassom Leonardo da Vinchi ham aytib o`t- gan:“Tarixiy mavzularda tasvirlanayotgan narsani yanada kuchaytirib ko`rsatish uchun qarama-qarshilik (kontrast), albatta, qo`llanilishi lozim. Ya`ni go`zalni doi- mo mo xunuk bilan, yoshni qari bilan, kuchlini nimjon bilan, yonma- yon tasvirlash o`rinlidir”.

Asar kompazitsiyasini allaqanday geometrik sxemalar asosida qurish (figu- ralarni uchburchak, aylana yoki diagonal bo`yicha joylashtirish) noto`g`ri .

Qiziqarli mavzu topilmagunga qadar kompazitsiyani tuzib bo'lmaydi. Mavzu ham topildi deylik, endi syujet kerak. Har bir rassom g'oyani ta'sirchan qilib yetkazuvchi syujet topadi.

Syujet aniqlangandan so'ng, kompazitsiya eskizi ustida ishlash boshlanadi. Birinchi eskizlarni yaxshisi, kichik o'lchamda bajargan ma'qul. Chunki kichik o'lchamda asosiy kompazitsion qurilishni joylashtirish osonroq. Undan keyin katta hajmdagi eskizni bajarishga o'tish mumkin.

Eskiz-bu kartina loyihasi, asar ishlash jarayonidagi birinchi bosqichdir. Eskizda mato o'lchami, gorizont balandligi aniqlanadi. Asarning yanada jonli, mazmunli chiqishi uchun eskiz bir necha variantlarda ishlanishi kerak. Unda ob'ektlarni, predmetlarni, figuralarni to'g'ri joylashtirish, g'oyaviy echimini aniq toppish lozim. Ishlanmada ortiqcha figuralar, umuman, ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak. Chunki ular asarning g'oyaviy mazmunini ochib bertishga to'sqinlik qiladi

Birinchi qarashdanoq mazmunini, g'oyasini tushinsa bo'ladigan eskiz mukammal eskizdir. Aynan mana shunday taasyrot qoldirishga intilish kerak.

Rangli eskiz ustida ishlash jarayonida koloritni to'g'ri tanlay olish lozim. Chunki u chizilayotgan narsalarni hayotiy qilib ko'rsatishga, mavzu mazmunini ochib berishga yordam beradi. Ob'ekt va narsalarga o'ylamayn turib rang berish noto'g'ridir.

Kartinaga etyud ishlashdan avval, eskizdagi kompazitsion echim, figuralar holati, ularning xarakteristikasi, haqmda voqea sodir bo'layotgan muhit topilgan bo'lishi kerak. Buni bajarish uchun esa asarda mos keladigan tipaj, yorug'lik tanlanadi.

Kartinadagi voqea sodir bo'layotgan joy qayisi holat, muhitga tasvirlansa, etyudlar ham xuddi shu sharoit va yorug'likda ishlanishi lozim.

Mashhur rassom, Surikov, agar do'zaxdagi gunohkorni chizish kerak bo'ladigan bo'lsa, o'zi ham naturani ham olov ustiga o'tirg'izib ishlashni aytib o'tgan edi. Ma'lumki, u qishda "Telba" asariga etyud ishlash uchun, oyoqyalang naturani qorga o'tqizib chizgan edi.

Natyurmortda ko'p material va asboblari ishlatiladi. Natyurmortni chizishda qalam, o'chirg'ich, va boshqalar ishlatiladi. Bo'yash uchun guash, akvarel, tempe-ra va boshqa bo'yoqlar, mo'yqalamlar, kumush va tilla hallar solihadigan har xil idishchalar ishlatiladi. Ularni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Mo'yqalam - qilqalam, qog'oz, ganch, yog'och, karton va boshqalarga bo'yoq bilan rasm solish, bo'yashda ishlatiladigan asbob. Mo'yqalam hayvonlar junidan va har xil plastinkalardan (tayyorlanadi). Mo'yqalamlar ko'rinishiga qarab, yalpoq, ya'ni kurakcha ko'rinishdagi mo'yqalamlar, uchi ingichkalashib boradigan dumaloq mo'yqalamlar bo'ladi. Dumaloq mo'yqalamlarni uchi ingichka bo'lib, borishi tasvirdagi mayda nozik joylarni ishlashga

qulaylik tug'diradi. Bo`-rsiq, suvsar, olmaxon kabilarning junidan tayyorlangan mayin mo`yqalamlar akva-rel, tempera, hamda grafika, rangtasvir ishlarida ishlatiladi. Akvarel uchun qo`g`oz yuzasini buzmaydigan yumshoq mo`yqalamdan foydalaniladi. Biroz qattiqroq mo`yqalam guash va tempera bo`yoqdagi tasvirlar uchun ishlatiladi. Qattiqroq jundan tayyorlangan mo`yqamlarni moybo`yoq mo`yqamlari deyiladi.

Ular rassomchilikda, naqqoshlikda va bo`yoqchilikda qo`llaniladi. Uzun qilli mo`yqalamlar esa freska hamda teatr dekoratsiyalarini tayyorlashda ishlatiladi. Qadimgi ustalar mo`yqamlarni o`zlari tayyorlaganlar yoki, maxsus mo`yqalam tayyorlaydigan ustalarga buyurtma berganlar.

Akvarel va guash uchun tayyorlangan mo`yqamlarni ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun mo`yqalam suvga botiriladi va suvdan olib silkitilsa, shunda, uchlari to`planib qolsa, bu mo`yqalam ishga yaroqli, aksincha, tuklari to`zib tursa, ishga yaroqsiz hisoblanadi. Ayrim naqqoshlar ikki tomonida ham mo`yi bo`lgan mo`yqamlardan foydalanadilar. Ya`ni bir tomonida katta, ikkinchi tomonida kichikroq mo`yi bo`ladi. Mo`yqalamlar ishlatilib bo`lingandan so`ng, kir-sovunda ehtiyotlik bilan yuvilib, keyin latta bilan siqilgandan so`ng stolni chetiga yoki maxsus tirgakka solib qo`yiladi.

Akvarel mo`yqalamini ishlatishda va uni saqlashda quyidagilarga alohida e`tibor berish kerak:

1. Mo`yqalamni suvda qoldirmaslik.
2. Mo`yqalamni bo`yoq bilan qotib qolishiga yo`l qo`ymaslik.
3. Ho`l hoida mo`yqalamni saqlash mumkin emas.
4. Mo`yqalamni changdan, yoki narsalardan saqlash.
5. Mo`yqalamning mo`y qismining uchini qiyshiq va tarqoq bo`lib qolishiga yo`l qo`ymaslik, chunki keyin to`g`rilash juda qiyin bo`ladi.
6. Akvarel ishlashda moyli moybo`yoq mo`yqalamini qo`llamaslik.
7. Mo`yqalamni quruq joyda, uchi qog`ozga o`ralgan holda maxsus qalamdonda saqlash kerak.

Belcha - (shpatel) buyum yoki boshqa narsalar yuzasini maxsus qorishma surtib tekislash (silliqlash)da ishlatiladi. Asosan, uch xil: katta, o`rtacha va kichik belchalar bo`ladi. Katta belchaning uch tomoni kengligi 15-20, o`rtacha belchaniki 8-10, kichik belchaniki 3-4 sm bo`ladi. Ular yuzaning katta-kichikligiga qarab ishlatiladi.

**Qog`ozlar** - Natyurmortda chizmachilik qog`ozlari ishlatiladi. Ayrim hollar- da katta eskizlar tayyorlashda millimetrovka qog`ozidan ham foydalaniladi. Chizma qog`ozlari qalamda, tushda, akvarelda, guashda ishlash uchun mo`ljallangan bo`ladi. Qog`oz turlari ko`p. B va O markali oq chizma qog`ozlar toboq va o`rama hoida ishlab chiqiladi. B markali qog`ozda eng muhim chizma va naqshlar ishlanadi. O markali qog`oz oddiy qog`oz bo`lib, chizmachilik,

naqqoshlik va mazarada keng qo'llaniladi. Odatda, uning bir tomoni silliqroq bo'ladi, o'sha tomoniga naqsh ishlanadi.

Qalam - Natyurmortni sifatli chizish uchun qalamlarni to'g'ri tanlash va ulardan to'g'ri foydalanish katta ahamiyatga ega. Chizmalar va naqshlar chizish uchun «konstruktor» markali har xil qattqlik va yumshoqlikdagi qalamlar juda qulay. Naqqoshlikda asosan, o'rtacha qattqlikdagi «TM» qalamlar ishlatiladi. Qattqlik darajasiga qarab qattiq, o'rtacha qattiq va yumshoq qalamlar bo'ladi. Ular tegishli T, TM va M harflar bilan belgilanadi. Qattiq va yumshoq qalamlar oldiga sonli ko'rsatkichlar ham qo'yiladi. Chunonchi, 2T, ZT, 4T yoki 2M, ZM, 4M va boshqalar, T harfi oldidagi, son qancha katta bo'lsa, u shuncha qattiq bo'ladi, M harfining oldiga qo'yilgan raqam qancha katta bo'lsa, u shunchalik yumshoq bo'ladi. Chet el qalamlarini H (qattiq), yumshog'ini B markalar bilan belgilanadi. O'rtacha qattqlikdagi harflar esa HB harflar bilan belgilanadi.

Qalam uchining grafit qismi 6-8mm, yog'och qismi 15-25 mm atrofida qilib yo'niladi. Qalamlar konus holida yo'niladi. Ularni yo'nish uchun bir bo'lak karton, faner va yog'och parchasiga shirach yordamida jilvir qog'oz yopishtiriladi. Qalamlar bilan naqsh chizishda bosmadan, qalamni yo'nilgan uchidan sal balandroqdagi uch barmoq bilan ushlanib chiziladi. Qalam bilan chizishda puxtalik, aniqlik hamda malaka bo'lishi kerak.

Palitra - natyurmortda oq rangdagi yassi lagancha yoki to'g'ri to'rtburchak plastmassa. Bunda oq qog'oz yoki kartondan ham foydalanish mumkin. Unda har xil bo'yoq turlari va shu rang bo'yicha koler tayyorlanadi.

O'chirg'ich - chizma chizishda qalamda, siyohda, tushda yoki boshqa chiziqlarni o'chirish uchun ishlatiladi. O'chirg'ich ikki xil: qalamda chizilgan chi-ziqlarni o'chirish uchun yumshoq oq yoki ko'k o'chirg'ich, siyoh, tush va boshqalarda chizilgan tasvirlarni o'chirish uchun tarkibida qumi bo'lgan qizil o'chirg'ich bo'ladi. Qog'ozda o'chirg'ich qancha ko'p ishlatilsa, qog'oz yuzasi ishdan chiqib, bo'yoqni yaxshi olmaydigan bo'lib qoladi, bundan tashqari o'chirg'ichni juda ko'p ushlab turish ham mumkin emas, chunki, qo'l terlab va yog'lanib, kirlanib qoladi, natijada qog'ozni xira qilib qo'yishi mumkin.


Stakan yoki banka - guash yoki akvarelga suv qo'shib, aralashtirib turish va mo'yqalamlarni yuvib turish uchun ishlatiladi. Koler tayyorlashda esa maxsus kichkina fayans, plastinka, chinni va boshqa materiallardan qilingan idishchalar ishlatiladi.

Lok - yog'och, faner yuziga ishlangan naqsh yoki biror tasvirning bo'yoqlari uchib va surkalib ketmasligi uchun yog'li lok beriladi. Naqqoshlikda rangsiz yog'li damar 4c, 6c, 7c markadagi smolali loklar ishlatiladi. Bu loklar paxta yog'iga o'xshash bo'lib, bo'yoq rangini deyarli o'zgartirmaydi. Buyumlar 18-22 darajali haroratda quruq changsiz joyda loklanadi va quritiladi. Buyum birin-ketin quritib, 2-3 marta loklanadi. Odatda, lok ikki sutkada yaxshi

quriydi. Agar yaxshilab quritib berilmasa, surkalgan lok yig'ilib-yig'ilib, burishib qolishi mumkin. Eski lok ishlatilmaydi. Lokni ishlatishdan oldin dokadan o'tkazgan ma'qul.

Alifmoy - yunoncha moy degani. U o'simlik moylaridan va neftdan olinadi. Alifmoy havoda asta-sekin qotib, keyin yupqa elastik parda hosil qiladi. Tabiiy va sintetik alifmoylar bo'ladi. Yog'och buyumlarni gruntovka qilishda uning sirtiga suriladi hamda shpaklyovka va zamaska tayyorlashda ishlatiladi.

6-jadval



MOYBO`YOQ BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

Moybo'yoq - bo'yoqlarning bir turi bo'lib, o'ziga xos tomonlari bilan farq lanadi. Moybo'yoqlar bilan ishlashdan avval ularning o'ziga xos xususiyatlarini puxta bilib olish zarur.

Moybo'yoqlar bilan ishlashni puxta bilgan talaba tasvirlash tilining o'ziga xos tomonlarini bilib oladi. Moybo'yoq turlari 6-jadvalda berilgan.

Moybo'yoq va loklar XV asrdan boshlab ishlatib kelinadi. Rangtasvirda qo'llanishini esa Niderlandiyalik aka-uka rassom, Van Deyklar boshlab berganlar. Ular zig'ir moyi juda tez qotishini bilib qolganlar va keyinchalik bo'yoq kukunini shu moyda qorishtirib, juda tiniq va yorqin bo'yoqlar hosil qilishga muvaffaq bo'lganlar. Ular moybo'yoq texnikasini rivojlantirishga ham katta hissa qo'shganlar.

XVI asr rangtasvir san'atida moybo'yoq rangtasviri asosiy o'rinni egallagan. Moybo'yoq bilan ishlash, 1920-yillardan so'ng rivojlana boshladi. Keyingi vaqtlarda moybo'yoq bilan tasvir ishlash keng miqyosda tarqaldi. Moybo'yoq uncha suyuq bo'lmagani uchun, akvarel kabi mo'yqalamdan va tasvir tekisligi yuzasidan oqib ketmaydi. Uning asta-sekin

qurish xususiyati esa matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq birikmasiga ancha uzoq vaqt mobaynida, ishlov berish imkoniyatini yaratadi. Moybo'yoqlarni ishlatish akvarel bo'yoqlarga nisbatan qulaydir. Ularning yana qulayligi shundaki, mabodo rang tusi noto'g'ri topilgan bo'lsa, uni qaytadan ishlash imkoniyati bor. Moybo'yoq matoga yoki biror yuzaga qo'yilgan bo'yoq qurigach, o'zining dastlabki rangini o'zgartirmaydi. Akvarel yoki guash bo'yoqlari kabi oqarmaydi.

Moybo'yoq suyuq va quyuqroq holda, yupqa tiniq qatlam tarzida yoki quyuq holda ishlatilishi mumkin. Lekin, boshqa bo'yoqlarga, ya'ni akvarel, guash va hokazoga nisbatan moybo'yoqni ishlatish uchun zarur jihozlar ancha murakkab.

Moybo'yoqlarni ishlatishda ularni suyultirish uchun erituvchi moddalardan foydalaniladi. Buning uchun maxsus tayyorlangan erituvchilar - penin, 1 va 2 raqamli suyultirgich loklar, yong'oq moyi, kanop yog'i ishlatiladi.

BO'YOQLAR TAYYORIASH TEXNOLOGIYASI RANGLAR HAQIDA

MA'LUMOTLAR

«Qora bo'yoqlar asosan, anor po'stlog'i va yong'oq mevasining po'stidan tayyorlanganligi sababli ham 100 yildan ortiq muddatda qora iplar to'qila boshlashi bilan bunday kashtalar yoshi 100 dan ortiq ekanligini bilib olish mumkin bo'ladi».

«Rangrezlar» - bo'yoq tayyorlovchilar tomonidan tabiiy o'simliklar va turli xil meva hamda gullardan olingan bo'yoqlar yordamida «bo'yoqchilar» tomonidan bo'yalardi. Buxoro «rangrez» chilarining ko'pchiligi yahudiylar bo'lishgan. Ranglardan faqat indigo - nil - ko'k rang chetdan, Hindistondan keltirilgan, qolganlari esa mahalliy o'simliklardan tayyorlangan. Keyinchalik, indigo bo'yog'ini buxorolik rangrezlar ham tayyorlashgan. Ammo, hunar sirini o'ta maxfiy saqlashgan, shu sababli ham hozirga qadar uni tayyorlash texnologiyasi ochilmay kelmoqda.

Jaydari yo'llar bilan tayyorlangan tabiiy bo'yoqlar achchiq sirka yoki «zok» achchiq tosh eritmasida mustahkamlangan.

Shundan keyin u uzoq muddat yorug'likda rangi o'chmaydigan, yuvilganda esa rangi suvga chiqmaydigan bo'lgan.

G'ijduvon kashtalarining ranglarini «rangrezlar» mahalliy o'simlik va mevalardan olganlar. O'smadan - yashil rang, hazorispanddan - sariq rang, shotutdan - jigarrang, xasaki qora tutdan - kulrang, yong'oq po'stidan - to'q yashil rang, qizil piyoz po'stidan - to'q sariq rang, qilosdan - qizil rang, **anor po'stlog'idan** - qora rang, gultojixo'rozdan - qirmizi, qizil rang, o'sma suviga, hazorsanband suvini quyib, qaynatib - feruza ranglar tayyorlashgan.

Ipak iplarni tabiiy bo`yoqlarga bo`yash uchun ip kalavalari achchiq tosh eritilgan suvga solib qo`yilgan, keyin tozalab olinib, bo`yoqli suvga solib qaynatil- gach, sirkali suvga chayib quritilgan.

G`ijduvonlik chevarlar ranglami mahalliy tilda quyidagicha nomlaganlar: pistoqi - yashil rang, nafarmon - siyoh rang, nilobi - ko`k rang, shirchoyi - gulobi rang, gilosi - to`q qizil rang, jigari - to`q qo`ng`ir rang, kabuti - och yashil rang, siyoh - qora rang, zard - qizil rang, xokistar - kulranglar shular jumlasidan.

XX asrning boshlariga kelib, tabiiy ranglar o`rnini anilin bo`yoqlar egalladi. G`ijduvon kashtachilari ham o`zining mayin ranglarini yo`qotib, tez, yorqin, oftob- da oqaradigan kimyoviy ranglarni ishlata boshlashdi. Bu esa G`ijduvon kashtalari- ning qimmatini pasaytirishga sabab bo`ldi.

ISHLAB CHIQARISHDA BO`YOQLAR TAYYORLANISHI

Sun`iy bo`yoq keng ko`lamda ishlab chiqarila boshlaganidan keyin, ko`p vaqt o`tmay, tabiiy bo`yoq deyarli tayyorlanmay qo`yildi. Turli-tuman sun`iy bo`yoqlar yaratila boshlandi va hozir ularning soni 10 mingdan ortdi. O`zining xossalariga ko`ra sun`iy bo`yoq tabiiysidan qolishmaydi; tannarxi ancha arzon, qolaversa, uni olish juda oson. Bo`yoq hosil qilish uchun neft chiqindilari va toshko`mirni kokslashdan olingan mahsulotlar asosiy xomashyo hisoblanadi.

Egnimizdagi hamma narsa - tugmachadan tortib to oyoq kiyimi ipigacha biron xil rangga bo`yalgan. Xonaga bir nazar tashlang. Devorda osig`liq gilam, devor, zarparda, turli ro`zg`or anjomlari, bolalar o`yinchog`i - bularning hammasi turfa ranglarga bo`yalgan. Mana shu ranglar tufayli biz rangli kinofilmlarni ko`ramiz, rang-barang tUSDagi rasmlar bilan bezatilgan jurnal va kitoblarni o`qiymiz, turli rangdagi siyohlarda xat . yozamiz.

Ko`rib turibsizki, turli-tuman narsalarni bo`yashga to`g`ri keladi. Har bir material o`ziga xos usulda bo`yaladi.

Aytaylik, terini bo`yash uchun unga oldin obdon ishlov berish zarur. Terini jundan tozalash maqsadida oldiniga bir necha kun, natriy sulfid aralashtirilgan ohakli eritmaga solib qo`yiladi. Keyin yumshatish uchun teriga maxsus eritma bilan ishlov beriladi. So`ng pishiq va qayishqoq bo`lishi, nam o`tkazmasligi va chirimasligi uchun teri oshlanadi. Shundan keyingina kerakli rangga bo`yaladi.

Ishlab chiqarilayotgan bo`yoqlarning aksariyati to`qimachilik sanoatida, gazlama bo`yashda ishlatiladi. Har turli, masalan, junli, ip, sintetik gazlama uchun xilma-xil bo`yoq kerak bo`ladi. Biroq, hamma turdagi bo`yoq uchun bir xil talab qo`yiladi - u jozibali, tiniq bo`lishdan tashqari, eng muhimi aynimasligi kerak. Boshqacha aytganda, bo`yoq quyosh nurida o`ngmasligi, yuvganda uchmasligi, oq matoga yuqmasligi kerak. Ya`ni, bo`yoq gazlamaga mutlaqo singib ketishi lozim.

Aksari bo`yoq molekulalari gazlama tolalari bilan tortishish kuchi hisobiga materialga mustahkam singigan bo`ladi. Agar bordi-yu, mana shu tortishish kuchi yetarlicha, mustahkam bo`lmasa, gazmol yuvilganda yoki yomg`irda qolganda, rangi o`chadi. Yaqinda ixtiro etilgan faol bo`yoqlar ancha pishiq bo`lib, uncha-muncha ta`sirdan oqarib ketavermaydi. Buning boisi shundaki, ularning molekula- sida faol guruh mavjud bo`lib, gazmol bo`yalganda mana shu molekulalar parcha- lanadi. Buning natijasida esa bo`yoq bilan gazmol tolalari o`rtasida mustahkam kimyoviy bog`ich hosil bo`ladi.

Gazlamaga gul bosish uchun maxsus bosma mashina ishlatiladi. Qanday gul bosilishiga qarab bosish usuli ham o`zgarib turadi. Aytaylik, oq matoga binafsha rangli gul bosish kerak. Bunda gul bosadigan mashinada oq matoga bir xil rang beriladi, qarabsizki, gazlama tayyor.

Bordi-yu buning aksi, binafsharangli matoga oq gul berilmoqchi bo`lsa-chi! Bu holda maxsus o`yuvchi eritma bilan binafsharangda sidirg`a bo`yalgan matoga gul bosiladi. O`quvchi eritma tarkibida biron-bir rangli, aytaylik, sariq rangli bo`yoq ham bo`lishi mumkin. Bu holda matoning rangi sariq gulli binafsha tusda bo`ladi. Murakkab gullarni bosish uchun ehtiyot bosma usulidan foydalaniladi. Matoning gul bosiladigan joylari «ehtiyotlovchi» modda bilan qoplanadi va sidirg`a rang berilayotganda o`sha joy bo`yalmaydi.

Bundan bir necha yil ilgari matoga murakkab gul bosishning yangi usuli ishlab chiqarishga joriy etildi. Mazkur usulda gul xuddi bolalarning «o`zing bo`yab ol» degan suratli kitobidagiga o`xshash tarzda matoga tushiriladi. Oldiniga gul qog`ozga tushiriladi, keyin, qog`oz matoga yopishtiriladi va bo`yoq matoga o`ta- veradi. Shu tariqa matoga ko`p rangli va xilma-xil gulli suratni tushirish mumkin.

Shu paytgacha faqat rangli bo`yoqlar to`g`risida so`z yuritdik. Biroq, turli, anvoyi rangli matolardan tashqari oq surp, oq qog`oz ham kerak-ku. Oq matoga yanada oqlik, tiniqlik berish uchun, optik oqartiruvchilar yoki belofoqlar qo`lla-niladi. Xo`sh, buning nima keragi bor? Mazkur savolga javob berishdan oldin, oq rangning o`zi nimaligini yana bir bor eslab ko`raylik.

Yorug`likning ko`rinadigan nurlarini yutmay qaytaradigan har qanday jism bizga oq bo`lib ko`rinadi. Agar jism biron-bir ko`rinuvchi nurni yutsa, u holda bizga o`sha narsa bo`yalgandek tuyuladi. Uning qanday rangda ko`rinishi esa jism yorug`likning qanday nurini yutayotganiga bog`liq bo`ladi.

Hamimiz yaxshi bilamizki, oq qog`oz oftobda qolsa, tezda sarg`ayadi. Buning sababi - quyosh nuri ta`sirida qog`ozda o`zgarish jarayoni ro`y berishi va u havorangni yuta boshlashidir. Yuvilganidan keyin, oq matoda ham shunday jarayon yuz beradi.

II Bob Serfayz o`zbek dasturxonini mavzusida natyurmort kompazit-

siyasini o`rgatishning tahliliy qismi

2.1. Kompazitsiyani bajarishdagi o`ziga xos texnika va usullari.



tasviriyy san'atning nazariy asoslari bilan tanishish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur. Bunda asosiy etibor kompozitsiya, nur va soyaning o'zaro muvofiqligi, rang shunoslik perspektivani o'rgatishga qaratiladi.

“**Kompozitsiya**” atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, *tuzilish, birlashish, bog'lanish* ma'nolarini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor g'oya- sini tomashabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida “kompazitsiya – adabiy asar, san'at asari qisimlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosobati, tarkibiy qismlari ma'no jihatidan o'zaro bog'lanib birlik tashkil etgan badiiy asar, muzika yoki rassomlik asari”,-deb ta'riflangan. Demak, kompazitsiya hozirgi zamon talqinida biror san'at asarining turli tomonlari, qismlari mushtarak yig'indisini anglatadi. Kompazitsiya tabiat, jamiyat va inson faoliyatiga bog'liq tushuncha. Tabiatdagi barcha jonsiz va jonli narsalar garmonik va dis garmonik yaxlitlikka-kompazitsiyaga ega. Masalan biror hayvon yoki daraxtga qarang. Hayvon oyoqlari, bo'yni, shoxi va qulog'i yo gavdasining birligi uning qanaqa hayvon ekanligini anglatadi. Asarning kompozitsion tuzilishi ijodkor g'oyasini tomashabinga aniq, oson, tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Kompozitsiya orqali rassom asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomashabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy-joyiga qo'yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir tasviriyy san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi. Kompazitsiya tuzilishning o'ziga xos qonun-qoidalari, vosita va uslublari mavjud.

Tasviriyy san'atda kompozitsiyaning asosan uch turi amal qiladi. Ular frontal kompazitsiya, hajimli kompazitsiya chuqur fazoviy kompazitsiyadan iboratdir.

1.Frontal kompazitsiya. Bunda tasvir tekislik yuzasida ishlanadi. Ular rang- tasvir, rel'efli haykallar, binolarning old qismi - fasadidagi tasvirli naqishlar bo'lishi mumkin.

2.Hajimli kompazitsiya. Bunday kompazitsiyalar uch o'lchamga ega tasvirlar bo'lib, ularni har tomonondan kuzatish mumkin. Ular asosan yumaloq haykallar, amaliy san'at buyumlari, me'morchilik binolarining modellarida namoyon bo'ladi.

3.Chuqur-fazoviy kompazitsiya. Bunday kompazitsiyalar ko'poq turarjoy va jamoat binolarining ichki qismini, xususan uy ichki xonalari, jamoat joylarining foyesi, teatr sahnasi kabilarning loyihalarida ko'zga tashlanadi.

Rang tasvir kompazitsiyasi ham tasviriyy san'atda katta o'rinni egalaydi. Bunga sabab tasviriyy san'at oldiga qo'yiladigan vazifalarning aksariati, xususan kishilarda badiiy did, tafakkur

va xotirani o`stirish, dunyoqarashni kengaytirish, tasviriy san`atni his etish malakalarini rivojlantirish rangtasvir kompazit siyasining asosini tashkil etadi.

Kompazitsiya qonunlari- birinchi galda bir butunlik yoki suvrat detalla-rining o`zaro bog`liqligi qonuni, muvozanat qonuni, suvratda yangilikning bo`lishi, kontrastlar qonuni, hayotiylik qonuni kabilar nazarda tutiladi.

Kompazitsiya qoidalari esa ritm, kompazitsion markazning bo`lishi, detal- larning simmetrik yoki assimetrik joylashuvi, kompazitsiyada harakat, turg`unlik, planlilik, paralellik kabilar nazarda tutiladi. O`quvchilar kompazitsiyaga xos qonun-qoidalar bilan birga uning uslublari va vositalari haqida ham ma`lum tasavvurga ega bo`lishlari lozim.

Kompazitsiya uslublari deyilganda tasvirni monumental tarzda ifodalash, fazoviy tasvirlash, detallarni tik, yotiq, dioganallar bo`yicha tasvirlash tushiniladi. Masalan, V.Surikov “Boyvuchcha Morozova” nomli asarida kompazitsiyadagi harakatni ko`rsatish uchun detallarni diogonal yo`nalishi bo`yicha joylashtirgan.

Kompazitsiya vositalari deyilganda chiziq, oq va qora ranglar, rang dog`lari, chiziqli va havo (rang) perspektivasi qoidalarasosida tasvirlash tushiniladi.

Kompazitsiyada kontrastlar qonuni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qonun asardagi detallarning rang va ton jihatidan bir-biridan keskin farq qilishini bildiradi. Xususan, ular och va to`q, iliq va sovuq rangda, og`ir va engil ranglarda bir-biriga qarama-qarshi bo`lishlari lozim. Shundagina suvratdagi detallar bir-birining fonida aniq va ifodali ko`rinadi.

Tasviriy san`atda, ayniqsa rangtasvirda rangning roli benihoya kattadir. U asarning mazmuni va g`oyasining to`la ochilishiga, uning tomoshabinga emot- sional–hissiy ta`sirini kuchaytirishga, shu bilan birgalikda kompazitsiyadagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Asarda detallarning assimetrik joylashuvi esa detal, shakl, yorug` va soya, rang, harakat, holatlar orqali ro`y beradi. Detallarning asarda assimetrik joylashuvi rasm g`oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Aytaylik, asarning ikki tomonida qarama-qarshi kuchlar tengsizligini ko`rsatmoqchi bo`lganida, rassom assimetriya qoidasidan foydalanishi mumkin. Detallar assimetrik bo`lgani taqdirda asarda muvozanatni buzilmasligi uchun rassom detallarni ritmik loylashtirishdan foyda- lanadi.

Rassomlar ko`pincha o`z asarlarida muayan ritm bo`lishiga e`tibor beradilar. Bu tasviriy san`atning barcha tur va janrlarida qo`llaniladi. Ritm ko`proq shakl, rang, o`lchov, nur va soya, harakat ko`rinishlarida ifodalanadi. U asar mazmuni bilan bog`liq bo`lib, muallifning g`oyasini tomoshabinga tez va oson etkazishga xizmat qiladi, asarni ifodaviyligini oshiradi.

O`zbekistonning Zarao`tsoyidan (Surxandaryo) topilgan ibidoiy odamlar ishlab qoldirilgan tasvirlarning nafisligi va mahorat bilan ishlaganligi hammaga ayon. Bu tasvirlarda ibtidoiy odamning kuzatuvchanligi, rang bilan narsa va hayvonlar rasmini bera olish qobiliyatini

ko'rsata olgan. Ammobu tasvirlarda narsa va hodisalar joylashuvi va tasvirda ibtidoiy odamning kompazitsiya yara- tishdagi o'zligi ham ko'zga tashlanadi. Hayvonlar bir-biri bilan, ma'lum kompa- zitsion markaz bilan bog'lanmagan.

Badiiy tafakkurni primitiv shakli, primitiv kompazitsiyalar yaratishda o'z ifodasini topgan.

Kompazitsiya kursida tasavvurni shakllantirishda qaratilgan mashqlar ham bo'lishi kerak. Ular, adabiy mavzudagi vazifalar ham bo'lishi mumkin. Talabalar badiiy asarning g'oyasini anglab yetishi, ishtirok etuvchi qahramonlar timsoluni tasavvur eta olishi, tasviriy qiyos orqali asarning mazmunini talqin qila olishi kerak. Bunday kompazitsiya ustida ishlash jarayonida ham, albatta, naturadan chizilgan etyudlar, xomaki


Tasviriy san'atda uning rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har xil ta'sir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalan- ganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uygotadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang hamda uni ishlata bilish juda quvvatli ekanligi ma'lum, bo'lib haqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakl- langan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuv- chi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektming asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin.

Ranglar tabiatdan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qato- riga qizil, sariq zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek, axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kulrang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi, ya'ni qizil, sariq,

ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'qligi, ya'ni och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi.

Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha, qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoiliysini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta aha- miyatga ega. Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida



22-расм. 1. 24 ранг спектори. 2. 12 хил ранг тусини ҳосил қилиш.

narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin, chunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'ri-nishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida mu-him ahamiyat kasb etuvchi omillardan eiig muhimi deb liisoblasak o'rinlidir. Akvarel bo'yoqida ishlash ham o'z navbatida jiddiy o'qib o'rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashrulotdir. Buning uchun amaliy ishning o'zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta. o'rganib borishni taqozo etadi.

O'quvchilar rangshunoslik nazariyasini puxta bilishlari shart. Shuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida

savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Rang- larning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar I. Nyutori, V. Lomonosov, G. Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V. Lomo- nosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan. I. Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan.

Buning uchun I. Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'tkazib, uning yo'lga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil rang- lardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havo- rang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelmgols rangshunoslik naza- riyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hoi rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoq- ning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yin- maganligi deganda uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yartni-dagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Sunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar — olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustrnaust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havorang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq'rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi, chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havorang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va have rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va liavo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havoranglari qo'shilishi natijasida oq hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Yoki unga yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havorang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida tola o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash

salmuqli o'rinni egallaydi. Akvarel rangtasvirning eng nozik turla-ridan biri. Qadimdan akvarel o'zining nafisligi va ranglarning yor-qinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar* ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni va biriktiruvchi) modda sifa-tida olcha yelimi, glitserin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rnini oq qog'ozning o'zi o'taydi. Qog'oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g'adirdur bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar yetarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayo-nida umumiydan xususiyga, yoki aksincha, xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Rangtasvir ishlashda uning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o'rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir desak xato bo'lmaydi. Shunday zarur shartlar qatoriga axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdags hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo'lish mumkin. Oqdan to'q qoragacha bo'lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kulrang, qoramtir, qora, to'q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko'k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o'z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo'linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini esla- tuvchi qizil, sariq, zarg'aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuv- chi ko'k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi. Yashil ya binafsha rang- lar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin, chunki yashil rang sariq va ko'k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko'k ranglarning aralash- masidan hosil bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq ranglarning ara- lashmasidan hosil bo'lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdo- riga nisbatan ko'proq bo'lsa, hosil bo'lgan rang issiq rang qatoriga, sovuq rang miq- dori ko'proq bo'lsa, sovuq ranglar qatoriga o'tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha rangda qizil rang ko'proq bo'lsa issiq, ko'k rang ko'proq bo'lsa sovuq ranglar qatori- ga kiradi. Demak, o'quv mashg'ulotida rangtasvirni ishlashda qo'yilmadagi narsa va buyumlarning yorug'soya nisbatlari, shuningdek, rang nisbatlarini ham ochib aniq ko'rsatish muhim ahamiyatga ega,

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to'g'ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniq- sa, naturmortdagi narsalaniing och- to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birli- gini tushunishga o'rganish uchun naturmortni bitta rangda tasvirlash katta ahami- yatga ega. Bu usulda rasm ishlash

keyinchalik qiyin naturmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'ti-shni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.



Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta naturmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan ham naturmort ishlash ancha oson bo'ladi.

Naturmortlar ko'pincha xonalarga qo'yib ishlanadi. Ammo ba'zan uni tabiat qo'ynida tashkil qilib tasvirlashga ham to'g'ri keladi. Shunday paytda naturmortni ishlashdan avval uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish muhimdir, chunki xona ichiga qo'yilgan naturmortga derazadan tushayotgan nur narsalarning yorug' qismida sovuq ranglarni beradi. Buyimlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo'lib ko'rinadi. Ochiq havodagi, chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorur qismi esa iliq bo'lib ko'rinishi mumkin.



ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so'ng e'tibor bilan tasvirlash ish sifati - ning yaxshi bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta - sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo'yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o'z o'mida jo'yali qo'llash muhimdir.




Naturmort kompozitsiyasi.

Akvarel bo'yoqlari 24-16 xil rangli to'plamlar holda bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo'yilgan yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchanning tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo'lishi mumkin, ya'ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg'aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak, karmin (erkin qizil), binafsha kraplak, ultramarin, ko'k kobalt, havorang, zumrad yashil, yashil perma- nent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to'q jigarrang), jigarrang mars (och), kuydirilgan umbra (jigarrang), sepiya (chiroyli to'q jigarrang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo, yetuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holat- larini idrok etib, ularning xususiyatlarini hisobga plgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun ras-somga ranglar nisbatini bilishi, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havorang, yashil, zangori tuslarda beriladi. Tasvir bilan chizila yotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbat- larida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur

o'rganishi va bilishi kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash moybo'yoq) naturmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlar texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlari bilan ishlash, salmoqli o'rinni egallaydi. Shuning uchun o'qituvchining o'zi ham shu sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.






Naturmort (akv).



Qush tulum (akv).

2.2. Kurrai zaminimizda, o'zining mehmon do'stligi-yu, dasturxoni nozi-ne'matga to'laligi bilan tanilgan millatimiz iftixorimiz va shu janrda ijod qilgan xalq rassomlari ijodidan namunalar.








Y.Elizarov. “So`zanali natyurmort”.


Pavel Petrovich Benkov

Pavel Petrovich Benkov 1879-yilda Qozon shaxrida tavvalud topgan. 1949-yilda Samarqandda vafot etgan. U O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi (1939-yil). Dastlab P.Benkov qozon badiiy bilm yurtiga o`qigan. Keyinchalik Peterburg badiiy akademiyasida, D.N.Kardovskiydan, Parijda rassom R.Jyulian- ning xysusiy akademiyasida ta`lim olgan. Italiya, Ispaniya, Fransiyaga safar qigan. 1913-1928 yillar davomida “Kovalevskiy bolalarining portreti”, “Rassom ayol portreti” asarlarini yaratgan. Qozon katta teatrida bir qator spektakllarga deko- ratsiyalar ishlagan. 1929 yilda Samarqandga kelib, 1930 yildan oshlab shahardagi badiiy bilim yurtiga o`qituvchilik qilgan. Uning o`tgan asrning 30- yillari o`rtala- rida yaratgan asarlarida, O`zbekistonning qadimiy shaharlari qiyofasi, o`ziga xos iqlimi, serquyosh manzaralari, o`zbek millatining betakror madaniyati, kishilari obrazi yorqin bo`yoqlarda gavdalandiriladi.

Uning “Buxoro timi” (1929 y.), “Xivalik qiz”(1931y), “Buxorodagi osh-



Sharq ko'chasi. 1929y.




Chor-Minor masjiti. 1929y.




Buxorodagi Qizil choyxona. 1929y.

xona” (1929y), “Eski Buxoro” (1931y), “Minorai Kalon” (1930 y.), “Dugonalar”, (1940y.), “Qahramonning onasi” (1942y.), “Jangchiga” (1945y.), “Dugorchi qiz” (1947y.), “Ko`cha”, (1943y.), “Registondagi choyxona”, (1944y.) nomliiy asarlari, O`zbekistonning mumtoz me`moriy obidalari va manzalariga bag`ishlangan. Pavel Benkov Samarqandning ko`cha va bog`lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxo- nalari, ulardagi hayotning o`ziga xos go`zalligini yorqin va hayoti ifodalovchi o`nlab asarlar yaratgan. O`zbekistonda tasviriy san`atning shakillani- shida, milliy kadrlar yetishtirishga uning xizmatlari beqiyos bo`lgan.



Buxoro Bozori. 1929y.



Xiva Meva bozori. 1930y.

O'rol Tansiqboyev

O'rol Tansiqboyev mashhur manzarachi rassom, rangtasvir ustasi. U 1904 yilda Toshkentda tavallud topib, 1974 yilda vafot etgan. O'.Tansiqboyev yoshli- gidan san`atga qiziqib, Toshkentdagi badiiy muzey qo- shidagi to`garakka (studiya) qatnab, dastlabki saboqlarni rassom, I.Repinning shogirdi, N.Rozanovdan oldi. To`garakka qatnab yurgan yillari- dayoq u ko`plab kompazitsiyalar ishladi.


Uning ilk ishlaridan biri 1927 yilda yaratilgan “Toshkentboyev partreti” edi. Studiyada tasviriy sanʼat borasida olgan bilimlaridan koʻngli toʻlmagan Oʻ.Tansiqboyev Rossiyaning Penza shahridagi badiiy-pedagogika bilim yurtiga oʻqishga kiradi.



U yerda I.Repinning shogirdlari ,I.Goryushkin-Sorokupudov va N.Petrovdan sanʼat sirlarini oʻrganadi. Ayniqsa, unga Rossiya mashhur rassomlarining Penza muzeyidagi tasviriy sanʼat asarlari katta taʼsir koʻrsatdi. Ularni oʻrganish va ayrim- laridan nusxalar koʻcherish Oʻ.Tansiqboyev uchun katta maktab vazifasini oʻtadi Oʻrol Tansiqboyevning mustaqqil ijodi, Oʻzbekistonda milliy sanʼatning tiklanish davriga toʻgʻri keldi. U oʻz ijodining dastlabki yilida yillarida anchagina asar- lar yaratgan boʻlsa-da, biroq uning asosiy ijodi 1940 yidan soʻng boshlanadi. U Oʻzbekiston delegatsiyasi tarkibida ikkinchi jahon urushi boʻlgan joylarga borib, u yerlardan katta taasurotlar bilan qaytdi. Natijada “Ozod etigan yerlarda”, “Malʼ - unning yoʻli”, “Partizan ayol”, “Havo jangi” kabi bir qator asarlar yaratdi. 1943 yilda unga Oʻzbekistonga ximat koʻrsatgan sanat arbobi unvoni berildi.



Urushdan keyingi yillarda O`rol Tansiqboyev katta o`lchamdagi asarlar yarata boshladi. Bunday asarlar qatoriga “Sholi hosilini yig`ib olish”, “Bahor”, “Paxtani sug`orish”, “Jonajon o`lka”, “Issiqko`l oqshomi”, “Tog`da ”kabilarni kiri-tish mumkin.



Rassom ijodining gullagan davrida yaratgan asarlaridan yana biri “O`zbe- kistonda mart” deb ataladi. Rassomning bu asarida bahorgi quyosh taftidan bahra ola boshlagan maysazorlar, daryoga olib boruvchi so`qmoq, daryo qirg`og`ining baland-pastliklari, qiyg`os gullagan daraxtlar, o`zaniga sig`may oqayotgan daryo, daryoning narigi tomonidagi tepaliklar, qori erib tugamagan tog`lar, quyosh nuriga hamohang tusga kirgan bulutlar kishiga zavq bag`ishlaydi.

O'rol Tansiqboyev o'zining urushdan keyingi ijodida, Respublikada qurila- yotgan kanallar, suv omborlari, elektrostansiyalari, neft nqiduruv ishlari bilan ha- mohang tabiat manzaralarini tasvirlashga harakat qiladi. Natijada u "Togda bahor", "Qayroqqum GESi tongi", "Angren vodiysi" kabi betakror asarlar yaratdi.



Rassomga shuhrat keltirgan asarlaridan biri, "Qayroqqum GESi tongi" deb ataladi. Bu asarda, yuqoridan turib kuzatilgan elektrostansiyasi va suv ombori lirik kayfiyatda tasvirlangan bo'lib, undagi qurilishlar tabiat bilan uyg'unlashib ketgan. Suvrat markazidagi erta tongda zangiri tusga kirgan elektrostansiyasi to'g'oni cheti ko'rinmas ulkan dengizni mahkam tutib turgandek tuyiladi.

Asarni kuzatgan odam sahroga jon bag'ishlovchi mo'jizakor manzaraning sehrli olamiga kirib qoladi. Unda olislarga bo'y cho'zgan mussaffo dengiz qa'riga ko'milgan shodlik va nafosatga boy tong yorishib kelayotganligini qalbdan his etadi. Bu suvratda tasvirlangan narsalar juda oddiy, lekin sehrlidir. Chunki dengiz, osmon va kengliklarning bepoyonligi, koloritning jozibadorligi, mayinligi kishini o'ziga tortadi. Manzarada suv, cho'l, tog' va fazo yirik hamda umumlashgan holda berilganligi sababli, asar nihoyatda salobatli ko'rinadi.

O'rol Tansiqboyev ijodiy yo'nalishini belgilab beruvchi asarlardan yana biri "Tog'dagi qishloq oqshomi" manzarasidir.

Asar tik holdagi kompazitsiyadan iborat. Unda Respublikamizning tog'lik go'zal qishloqlaridan biridagi kechki payt tasvirlangan. Asarda uzoqlarda yastanib yotgan moviy tog'lar, chiroqlarini endigina yoqqan xonadonlar, qishloq yonidan oqib o'tgan soy, kishilar va

bolalar tasviri koʻzga tashlanadi. Kishilar va bolalar tasviri manzaraga hamohang tarzda unga hayotiylik baxsh etadi.

Suratdan koʻrinib turibdiki, kech kirib, oqshom tushgan va togʻ choʻqqilari-yu, qoyali toshlarni tun oʻz qoʻliga tortmoqda. Tepaliklardan tushib kelayotgan qoʻylarning maʼrashi, soyning shuvillashi, chigirtkalarining chirillashi eshitila- yotdek tuyiladi. Kechki yogʻdu bagʻrida, uning zavqini tortayotgan bolalar tasviri, u yer, buyarlarda koʻzga tashlanadi. Kech kirib, viqorli togʻlar orqasiga quyosh berkingan, uning oʻrniga oy chiqmoqda.

Oʻrol Tansiqboyevning diqqatga sazavor asarlaridan yana biri 1955 yilda yaratilgan “Sirdaryo” nomli manzara boʻlib, u Moskvadagi Tretyakov galereyasida saqlanadi.

1960 yillarda rassom “Togʻ yoʻli”, “Angren-Qoʻqon yoʻli”, “Angren daryo- si”, “Chorvoq qurilishida” kabi bir-biridan jozibali asarlar yaratdi. Umrining oxir- larida yaratgan “Kuz tongi”, “Mening qoʻshigʻim”, “Chordaryo suv omborida” kabi asarlari esa rassom ijodining, choʻqqilari boʻlib qoldi.

Oʻrol Tansiqboyev ijodiga xos xususiyatlar ona-Vatanga muhabbat, uni ulugʻlashdir. Rassom asarlarida tabiatni keng qamrovli va osmon oʻpar togʻlar, uzoqlarga ketgan ilon izi yoʻllar, moviy osmon, koʻk bilan tutashib ketadigan goʻzal hayotiy manzaralar tasvirlanadi. Ayrim hollarda, kishilar tasvirlari ham yorqin ranglarda ifodalanadi.

Oʻrol Tansiqboyev katta hayot yoʻlini bosib oʻtdi. U 1934 yillardayoq Moskva va Finlandiyada oʻtkazilgan tasviriy sanʼat asarlari koʻrgazmasida oʻz ishlari bilan qatnashdi. Oʻrol Tansiqboyev 1958 yida Bryusseldagi xalqaro koʻr- gazmada “Qayroqqum GESi tongi” asari bilan, qatnashib xalqaro kumush medal bilan taq- dirlandi.

Vatanimiz sanʼatini rivojlantirishdagi xizmatlarini taqdirlab, rassom huku- matimizning bir qator orden va medallari bilan mukofotlangan. U Oʻzbekiston xalq rassomi, Rossiya Badiiy Akademiyasining haqiqiy aʼzosi edi.

Rassomning bir qator asarlari Moskvadagi Moskvadagi Tretyakov galere- yasi, Sharq xalqlari sanʼat muzeyi, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Tojigiston, Moldova, Litviya, Oʻzbekiston sanʼati muzeylaridan oʻrin olgan.

Oʻrol Tansiqboyev birinchilar qatori manzara janrida ijod qilib, sanʼatimiz tarixida oʻchmas iz qoldirgan mussavirlardan edi. U oʻz asarlarida Oʻzbekistonning goʻzalligini, uning jozibasini kuyladi. Oʻrol Tansiqboyevning asarlari yana uzoq yillar bizni va kelajak avlodlarni ham Vatanga muhabbat, goʻzallikdan zavqlani- shga chorlab turishi shubhasizdir.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova

Hozirgi zamon, Oʻzbekiston tasviriy sanʼatining manzara, portret, natyur- mort va maishiy janrlarida barakali ijod qilayotgan, oʻzbek rassomlaridan yana biri, Laylo Salimjonovadir.

Laylo Abdubakirovna Salimjonova 1936 yilda Samarqand viloyatining Urgut shahrida tugʻilgan. Layloning otasi huquqshunos, onasi uy bekasi edi. Ushbu oila 1941 yilda Toshkentga koʻchib keladi. Oilada sanʼatga dahldor kishi boʻlmasada, Laylo oʻrta maktabning 8-sinfini tamomlab, oʻzining qiziqishi tufayli P.P.Benʼkov nomidagi Respublika badiiy bilim yurtiga oʻqishga kiradi. Bilim yurtini 1957 yilda muvaffaqiyatli bitirib, shu yilning oʻzida teatr va rassomlik institutining tasviriy sanʼat fakultetiga hujjat topshiradi. Institutni 1963 yilda tamomlaydi. U yerda Laylo, N. Qoʻziyoyev, T.Oganesov, P.Ahmedov kabi ustoz rassomlar qoʻlida sanʼat sirlarini oʻrganadi. Yosh rassomni margʻilonlik kashtachi qizlarning betakror va ajoyib ishlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Shu boisdan u diplom ishi uchun “Margʻilon kashtachilari” mavzusini tanlaydi.

“Saodat” jurnalining bosh muharriri shoira Zulfiya, Laylo Salimjonovani 1963 yilda, yaʼni u hali talabalik davridayoq mazkur jurnalga ishlashga taklif qilgan edi. Shu tariqa Laylo Abdubakirovna Salimjonova bu jurnalda 30 yil mobaynida bosh rassom boʻlib ishladi. Keyinchalik u “Guliston” jurnalida ham faoliyat koʻrsatdi. Bu yillar mobaynida isteʼdodli rassom Oʻzbekiston rassomlar uyushmasining aʼzosi boʻldi, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi unvoniga sazavor boʻldi.

Laylo Salimjonova oʻtgan asrning 60-70 illaridagi koʻrgazmalarda asosan portret janridagi asarlari bilan qatnashar edi. Uning bu janrdagi “Jamila Juma-yeva”, “Bahri Gʻulomova”, “Zulfiya” kabi asarlari diqqatga sazovordir. Keyinchalik u “Halima Xudoyberdiyeva”, “Onalik”, “Yashnarxon portreti”, “Singlim portreti”, “Maʼmura Boboyeva”, “Toʻquvchi qizlar”, “Farida portreti”, “Arxitektor M. Xudoynazarova”, “Dilorom Qambarova”, “Zamira Hidoyatova”, “Hamro Rahimova” kabi yana oʻnlab betakror ortretlarni yaratdi. Birgina “Hamro Rahimova” asarining yaratilishi tarixiga nazar tashlasak, qiziq hikoyaning guvohi boʻlamiz. Rassomasar yaratishga material toʻplash maqsadida xalq oʻyinchoqlari ustasi Hamro Rahimovaning uylariga borib, ularning xonadonlarida bir necha kun mehmon boʻladi. Laylo Salimjonovani betakror oʻyinchoqlarning yaratilish bosqichlari nihoyatda qiziqtirib qoladi. Bu jarayonni oʻz koʻzi bilan koʻrgan rassom shu ondayoq yaratilajak asarining kompozitsiya yechimini topadi. Laylo Salimjonova ustaning mehnat jarayonida xomak eskizlar ishlar ekan, baʼzida uni savollarga koʻmib tashlar edi. Shu tariq “Hamro Rahimova” suvrati yaratilgan. Qiziq tomoni shundai, bu asardagi turli yosgdagi bolakaylar tasviri umuman qaxramonga notanish va rassom tomonidan kiritilgan.

“Ustaning hovlisida bu quvnoq bolalarning koʻrmagan boʻlsam-da, oʻzimda bolalar timsolini ham asarga kiritish istagi paydo boʻlgan”, – deydi, asar muallifi.

Laylo Salimjonova tabiatni tasvirlashda ham oʻz yoʻnalishga ega. Bunga “Soy boʻyida”, “Oq tosh”, “Varrak”, “Hovlida”, “Qoratosh”, “Togʻda kuz” kabi asarlarini kuzatish orqali yana

bir bo'amin bo'lamiz. Ayniqsa, "Tog'da kuz" asari ham mazmun, ham kompozitsiya jihatidan chuqurroqdir. Asarda ilgari surilgan g'oya – kuz faslining go'zalligi, musaffolik, sokinlikni tarannum etishdan iboratdir. Savlatli tog'lar, barglari sarg'aygan bog'lar, qirg'og'I toshlar bilan o'ralgan zilol suvli soy va boshqako'plab manzara unsurlari, yuqori tasviriy mahorat bilan ishlangan.

Laylo Salimjonova gularni juda sevadi. Uning "Xrizontema natyurmorti", "Oq gular", "Moviy fondagi natyurmort", "Xrizontemalar" kabi asarlarini kuzatib, gullardagi go'zallik – rassom ijodining asosiy mavzusi deyish mumkin.

1991 yilda yaratilgan "Xrizontemalar" nomli natyurmortida rassom gullar-ning guldonda tartibsiz joylashuvi, ularning issiq rangli fonda jilolanishi, hamda qisman ko'ringan stolning perespektiv holati orqali asar kompozitsiyasini yaxlit namoyon etadi. Laylo Salimjonova mo'yqalamiga mansub asarlar, Angliya, Iordaniya, Isroil, Hindiston kabi ko'plab davlatlarga yetib borgan. Uning "Qora qahva" nomli natyurmorti esa, Angliyalik mashhur shaxsiy kolleksioner tomonidan sotib olingan.

Laylo Salimjonova yurtimiz rassomlarining keksa avlodiga bo'lishiga qaramay, hanuzgacha ijod bilan band. U o'z suhbatlarida Z. Inog'omov, M.Saidov asarlarini sevishini, jahon san'ati namoyondalaridan Van Gog ijodiga o'zgacha hurmat bilan qarashini e'tirof etadi.

Laylo Salimjonovanning ijodi oilasiga ham tasir qilgan. Buni rassomning ug'li Ahmad Boboyev ijodida yaqqol ko'rish mumkin. U kino sohasida rassom bo'lib ishlaydi. Qizi Lola Boboyeva ham onasi kasbini ezozlab, dezaynerlik san'atini egallagan. Uning ishlari AQSH hamda Parij ko'rgazmalarida muvaffaqiyat bilan namoyish qilingan. Laylo Salimjonovanning turmush o'rtog'i Baxtiyor Boboyev ham mashhur o'zbek rassomlaridan biridir.

UMUMIY XULOSA

Tasviriy san'atda, borliqni aks ettirish o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. U inson paydo bo'lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O'rta asrga kelib o'zining eng yuqori cho'qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo svili- zatsiyasiga o'ziga xos o'ringa

ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblari etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda “Serfayz o`zbek dasturxon” haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim. Shu bilan birga O`zbekistonimiz- ning olamda tengi yo`q tabiati, serjilo quyoshli kunlari, olamda tengsiz meva va sabzavotlari-yu, esa-yegin keladigan polovxon to`ra-yu, kaobu-shashliklari bilan mashhurdir. Bu kompazitsiyamda, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`t shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`uliyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san` - atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`l- laridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni. -T., 1997.
3. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O`zbekiston Respublikasining Davlat ta’lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. G` O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so`zlagan nutqi. -T.:Sharq, 1997.- 53b.
6. Pavlov I. P. Psixologiya vo`sshego razuma.-M.: Prosvehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
7. Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. G`G` Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
8. N.U.Abdullayev.”San`at tarixi”.-Toshkent,”O`qituvchi”.1986.

- 9 Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
- 10 Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-17b.
- 11 Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaG`G` Ma`rifat.-2004,- 21 fevral.
- 12 Y.V.Shoroxov.Osnovi kompozitsii-Moskva.”Prosveshenie”.1976.
- 13 S.Abdirasulov,N.Tolipov,N.Oripova. Rang tasvir Toshkent- “O`zbekiston”-2006
- 14 Botir Boymetov Qalam tasvir “MUSIQA” nashriyot TOSHKENT-2006
- 15 B.Z. Azimova “Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi”Toshkent –O`qituvchi-1984.
- 16 B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli lug`ati.Toshkent -1994.
- 17 S. Abdirasulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
- 18 G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.
- 19 L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 20 B.S.Kuzin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 21 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 22 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 23 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-“Fan”.2004.
- 24 A.Y. Terent`yev.Izobrajenie jivotnix I ptits sretstvami risunka I jivipisi. Moskva.-1980.
- 25 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 26 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 27 N.M.Moleva.Vidayusheysiya russkiy xudojniki – pedagogi. Moskva ,1991.
- 28 N.Rastovtsev. Akademicheskii risunok.Moskva,1985.
- 29 V.S.Kuziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.

Navoiy davlat pedagogika instituti pedagogika
fakultetining bitiruvchi kurs talabasi **Xasanov Yoqibjon**
Kamolovich
“Serfayz o`zbek dasturxoni” mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Xasanov Yoqibjon Kamolovich “Serfayz o`zbek dasturxoni” mavzu- sidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – o`quvchilar tafakkurini o`stirish muammosining yechimini topishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Talaba malakaviy bitiruv ishida kompazitsiya haqida umumiy tushuncha berishni, tasviriy san`at usullarini bayon etishni va natyurmortga doir bir nechta misollar keltirishni o`z oldiga maqasad qilib qo`ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foyda- lanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 71 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, yuqori sinf o`quvchilarining rangtasvir tushunchasini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi va umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriy san`at darslarida natyurmort mavzusini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan. Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, rangtasvir texnikalaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Xasanov Yoqibjon Kamolovich tomonidan ayrim kamchiliklar ham uchraydi, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 26, 33-betlar.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida rang tasvir qonun-qoidalariga to`g`risida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo`lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qimmatiga ta`sir ko`rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi Xasanov Yoqibjon Kamolovich –“tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta`lim yo`nalishi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Ilmiy rahbar:

o`qituvchi: **S.T.Sa`diyev**

Navoiy davlat pedagogika instituti
pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi

Xasanov Yoqibjon Kamolovich

“Serfayz o`zbek dasturxon” mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Xasanov Yoqibjon Kamolovich “Serfayz o‘zbek dasturxon” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o‘rta maktabda tasviriy san‘at fanining rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda yozilganligi bilan bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lib borishi bilan belgilanadi.

Talaba malakaviy bitiruv ishida natyurmort haqida umumiy tushuncha berishni, rangtasvir usullarini bayon etishni va natyurmortga doir bir nechta ko‘rinishlar keltirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 71 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, yuqori sinf o‘quvchilarining tasviriy san‘at darslarini yaxshi o‘zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarida tasviriy san‘at o‘quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi, hamda umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarida rang tasvir darslarida natyurmort mavzusini o‘rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e‘tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san‘at o‘qitish metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o‘rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o‘ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo‘lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o‘z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Xasanov Yoqibjon Kamolovich tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan, jumladan:

1. Nazarimizda, tasviriy san‘at o‘qitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib o‘tilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida ayrim texnik xatolar ham uchraydi;

Umuman, yuqorida bildirilgan noaniqliklar tadqiqotchi Xasanov Yoqibjon Kamolovich o‘tkazgan tadqiqotning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi, aksincha tadqiqot haqqoniy bajarilganligidan dalolat beradi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi talablariga to‘liq mos keladi. Uning muallifi Xasanov Yoqibjon Kamolovich – “tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi ixtisosligi bo‘yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Kafedra mudiri:_____ katta o‘qituvchi Shovdirov S.A.

